2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 171 (960), 2023-yil 25-avgust, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

# MAHALLIYLASHTIRISHNI KENGAYTIRISH ORQALI EKSPORTDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA’MINLASHGA ERISHILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, sanoat va xizmat ko‘rsatish loyihalari bilan tanishish hamda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini belgilash maqsadida 24-avgust kuni Samarqand viloyatida bo‘ldi.**



Davlatimiz rahbari dastlab Payariq tumaniga borib, Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi. Qur’on tilovat etilib, duo o‘qildi.

— Ilohim, duolarimiz ijobat bo‘lib, Alloh yurtimizni tinchlik-osoyishtalikda saqlasin, fayzu baraka bersin. Mana, mustaqilligimizning 32 yillik bayrami arafasida turibmiz. Xalqimiz bilan birga shu kunlarga yetganimizga shukrlar aytamiz. Oldimizga yana katta-katta rejalar qo‘yganmiz. Buning uchun ikki karra ko‘proq harakat qilishimiz, yoshlar tarbiyasiga e’tibor berishimiz kerak. Hamma sohada ta’limni, bilimni oshirsak, natijalar yuqori bo‘ladi. Yoshlarimiz Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bekday bobolarimizga munosib bo‘lishini istaymiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Islom ma’rifati bo‘yicha xuddi Buxorodagidek, Samarqandda ham namuna yaratish kerakligi ta’kidlandi. Allomalarimiz merosidan foydalanib jaholatga qarshi ma’rifatni kuchaytirish, yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan asrash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Hozirgi kunda Imom Buxoriy majmuasi yangidan barpo etilmoqda. Davlatimiz rahbari pardozlash ishlari namunalarini ko‘zdan kechirdi.

Prezidentimiz Oqdaryo tumanidagi 32-umumta’lim maktabini kirib ko‘rdi.

Konstitutsiyamizda O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilandi. Bu boradagi eng muhim sohalardan biri ta’limdir. Shu maqsadda yangi muassasalar qurish bilan birga ta’limning mazmunini yaxshilashga ham e’tibor qaratilmoqda.

782 o‘quvchiga mo‘ljallangan 32-umumta’lim maktabi joriy yilda kapital ta’mirlandi. 22 ta sinfxona, sport zali, oshxona, STEM laboratoriyasi, kompyuter xonalarida zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Kutubxonada 1 ming 500 dan ziyod badiiy adabiyotlar jamlangan.

Ma’lumki, yoshlarni kamida ikkita chet tili va bitta zamonaviy hunarga o‘rgatish maktab ta’limidagi asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan. Maktabning bo‘sh turgan yer maydonida yengil konstruksiyalardan qo‘shimcha xonalar qurilib, 15 xil kasb-hunar o‘rgatish uchun sharoit yaratildi. Bu yerda o‘quvchilar kompyuter, texnik xizmat ko‘rsatish, to‘quvchilik, sartaroshlik, kosmetologiya, kulolchilik, o‘ymakorlikning ilk saboqlarini o‘rganadi.

Prezidentimiz xonalarni kirib ko‘rdi, yozgi to‘garakka kelgan bolalar bilan suhbatlashdi.

— Biz oliy ta’limda qamrovni kengaytirib boryapmiz. Lekin hamma ham universitetda o‘qishni tanlamaydi. Shuning uchun farzandlarimizga maktabdayoq chet tillari va hunar o‘rgatishni maqsad qilganmiz. Kimning kichkina bo‘lsayam, qo‘lida kasbi, hunari bo‘lsa, kuni o‘tadi. Keyin yana o‘z ustida ishlab, mahoratini oshirishi mumkin. Maqsadimiz — har bir yoshga munosib sharoit yaratish, — dedi davlat rahbari.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda o‘qituvchilar va mehnat faxriylari bilan muloqot qildi.

Prezidentimiz Samarqand davlat universitetining Biokimyo instituti faoliyati bilan tanishdi.

Bugungi kunda universitetda 25 mingdan ortiq talaba ta’lim oladi. Bu yerda to‘rtta — Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti, Muhandislik fizikasi instituti, Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti hamda Biokimyo instituti tashkil etilgan.

Biokimyo instituti joriy yilda universitetning biologiya va kimyo fakultetlari negizida ochildi. Ta’lim muassasasi uchun yettita yangi bino qurildi. Jumladan, jami mingdan ortiq o‘ringa ega 2 ta o‘quv binosi, majlislar zali, oranjereya-issiqxona, biologik tadqiqotlar laboratoriyasi — vivariy, botanik tadqiqotlar laboratoriyasi — gerbariy hamda talabalar oshxonasi barpo etildi.

Ahamiyatlisi, shu tariqa ikki yo‘nalish mutaxassislariga bir maydonda ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyati yaratildi. Bu biologiya va kimyo yo‘nalishidagi innovatsiyalar integratsiyasini yangi bosqichga olib chiqadi. Davlatimiz rahbari institutdagi o‘quv xonalari, oranjereya, ilmiy laboratoriyalardagi sharoitlar bilan tanishdi. Professor-o‘qituvchilar bilan muloqot qildi.

Olimlar istiqbolda onkologik dori vositalarining kimyoviy transformatsiyasi asosida xavfli o‘smalarga qarshi tanlab ta’sir etadigan yangi dori vositalarini yaratish rejasi haqida so‘zlab berdi.

Prezident institut professor-o‘qituvchilarini chet elda malaka oshirishga yuborish, farmatsevtika va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqish, g‘o‘za, uzum, donning yangi navlarini yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Bugungi kunda Biokimyo institutida 8 ta’lim yo‘nalishida 2800 nafar talaba tahsil olmoqda. Umuman, universitetda 12 ta ilmiy va 67 ta o‘quv laboratoriya bor.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand tumanida barpo etilayotgan savdo, sanoat va servis majmuasi qurilish maydonida bo‘ldi. Majmua hududi 37 gektar. Bu yerda umumiy qiymati 2 trillion 79 milliard so‘mlik 7 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Ulardan birinchisi — avtomobillar ehtiyot qismlari bozori yaqinda ishga tushiriladi. 11 gektar maydondagi savdo do‘konlarida 3 mingta ish o‘rni yaratiladi.

Ayni paytda gazoblok, penoplast, ohak va zichlagich ishlab chiqarish korxonalari qurilishi davom etmoqda. Ular shu yil oxirida foydalanishga topshiriladi. Shuningdek, kelgusi yillarda “Ko‘ksaroy avtomoll” savdo va ko‘ngilochar markazi, oynaga ishlov berish, plastik va alyumin romlar korxonasi qurib bitkazilishi rejalashtirilgan.

Umuman, ushbu loyihalarda o‘n mingga yaqin aholi doimiy ish bilan ta’minlanadi.

Davlatimiz rahbari buning ahamiyatiga alohida to‘xtalib, loyihalarni tezlashtirish, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, ishsiz aholi bandligini ta’minlash muhimligini ta’kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahridagi “Aziya metall prof” mas’uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Ushbu yirik zavodda 2018-2022-yillarda xitoylik hamkorlar bilan birgalikda umumiy qiymati 110 million dollarlik loyihalar amalga oshirilgan. Bu mablag‘ning 33 million dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyadir.

Dastlab, 2018-yil dekabrda rux va polimer bilan qoplangan metall listlar tayyorlash boshlangan bo‘lsa, ikkinchi bosqichda, 2021-yildan metall quvurlar va profillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. 2022-yil fevraldan issiq o‘ramali metall listlar va qurilish uchun profillar ham ishlab chiqarilmoqda.

Bu mahsulotlar import o‘rnini bosishi va eksportbopligi bilan ahamiyatli. Xususan, o‘tgan yili korxona tomonidan 63 million dollarlik mahsulot eksport qilingan. Ushbu ko‘rsatkich joriy yilda yanada yuqori bo‘lishi kutilmoqda. Ayni paytda korxonada 520 nafar ishchi mehnat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari loyihaning to‘rtinchi bosqichi — armatura ishlab chiqarish korxonasining qurilish maydonida bo‘ldi. Bu yerda yiliga 390 ming tonna armatura quyish quvvati hamda 150 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Umuman, 2023-2025-yillarda yana beshta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Ularga jami 621 million dollar yo‘naltirilib, yiliga 1,7 million tonna metall hamda 10 million metr kvadrat oyna ishlab chiqarish quvvati yaratiladi. 930 ta yangi ish o‘rni ochiladi.

Prezidentimiz mahalliylashtirish va tannarxni tushirish orqali eksportda raqobatbardoshlikni oshirish kerakligini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda yil yakuniga qadar amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Keyingi yillarda viloyat izchil rivojlanmoqda. Lekin bu barcha tumanlarda mutanosib emas.

Masalan, hudud sanoatining qariyb yarmi Samarqand shahriga to‘g‘ri keladi. O‘tgan yetti oyda viloyatda 600 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Lekin ularning 78 foizi Samarqand shahri, Kattaqo‘rg‘on, Pastdarg‘om va Samarqand tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. So‘nggi besh yilda elektr iste’moli 1,5 baravarga oshgan. Qishloq xo‘jaligida hosildorlik, suvni tejash yetarli emas.

Shu kabi tahlillardan kelib chiqib, Prezidentimiz tadbirkorlik, investitsiya, sanoat, turizm sohalaridagi imkoniyatlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Mahallalarda tadbirkorlik va dehqonchilikni qo‘llab-quvvatlash, uzum va pista yetishtirishni ko‘paytirish, serqatnov yo‘llar bo‘yida xizmat ko‘rsatish sohasida aholini ishli qilish zarurligi ta’kidlandi.

“Urgut” erkin iqtisodiy zonasining 15 ta tumandagi hududi va viloyatdagi 106 ta sanoat zonasini infratuzilma bilan ta’minlash uchun shu yilning o‘zida 170 milliard so‘m ajratilgan. Lekin ularda 620 gektar yer bo‘sh turibdi. Mutasaddilarga infratuzilma muammosini hal etib, ushbu maydonlarga tadbirkorlarni jalb qilish bo‘yicha topshiriq berildi.

Oqdaryo va Pastdarg‘omdagi podstansiyalarni yangilash, yil yakunigacha Kattaqo‘rg‘on tumani va Samarqand shahrida quvvati 250 megavatt bo‘lgan 2 ta quyosh elektr stansiyasini ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Viloyatda turizm sohasida 20 mingta doimiy ish o‘rni yaratish va eksportni 500 million dollarga yetkazish imkoniyati borligi qayd etildi. Buning uchun jozibador dasturlarni ko‘paytirish, yo‘llarni va jamoat transportini qulay qilish zarurligi ta’kidlandi. Turizm salohiyati yuqori 100 ta mahalla va qishloqda “turizm ipotekasi” dasturi asosida yangi sayohat manzillari ochish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

— Xalqimiz biz belgilab olgan juda katta vazifalarning ijrosini kutyapti. Har bir hokim hududidagi imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanib, mahsulot chiqarib, odamlarga ish o‘rni yaratmasa, buni chetdan kelib hech kim qilib bermaydi. Natijadorlikni har yili oshirib borish zarur. Qolgan to‘rt oy kelgusi yilga mustahkam zamin yasaydigan oylar bo‘lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar bo‘yicha viloyat va tumanlar hokimlari, soha mutasaddilari axborot berdi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Samarqand viloyatiga tashrifi yakunlandi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,**
**G‘olib HASANOV,**
**Ikrom AVVALBOYEV,**
**O‘zA muxbirlari**

## MAHALLIYLASHTIRISH

### “ZANJIR” MUKAMMAL ISHLASA, NATIJA KUTTIRIB QO‘YMAYDI



**Mahalliylashtirish deganda, sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import qilinadigan detallar, butlovchi qismlar va boshqa mahsulotlarni mahalliy xom-ashyo hamda materiallar asosida tayyorlashga o‘tkazish jarayoni tushuniladi. Bunda, birinchi navbatda, ichki bozorni o‘rganish, importni tahlil qilish va xomashyo bazasini aniqlash zarur. Keyingi bosqichda mahalliylashtirish loyihasi shakllantirilib, amalga oshiriladi.**

Davomi 4-betda

## YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

### O‘ZGARAYOTGAN TARTIB-TAOMILLAR

#### ODAMLARGA QANDAY QULAYLIK TUG‘DIRMOQDA?

**Bir voqea hech yodimdan chiqmaydi. 2016-yil edi. Taqdir taqozosi bilan viloyatdan Toshkentga ko‘chib keldik. Issiq joyni sovitish, oilani boshqa makon sari qo‘zg‘atish oson ish emas. Ayniqsa, u yillari poytaxtga ko‘chib kelishning hal qilib bo‘lmas muammolari bor edi. Biri “propiska” bo‘lsa, ikkinchisi uy-joy masalasi.**



Yaxshiyamki “propiska”ni talabalik paytimda bir amallab Toshkentga “doimiy”ga ko‘chirgan ekanman. Endi ayolim va farzandlarimni doimiy ro‘yxatga qo‘yish kerak. Ikki xonali uyimiz bor. O‘zim shu manzilda doimiy ro‘yxatda turaman, lekin oila a’zolarimni “propiska”ga qo‘yishning azobini asti qo‘yaverasiz. Hali unga bor, hali bunga... Bir pasport stoldan unisiga, unisidan bunisiga yugur-yugur. Nachora, shu ishni oxirigacha yetkazmasam, bolalarim bog‘chaga ham, maktabga ham borolmaydi. Hatto mahalla noziri doimiy ro‘yxatda turmas ekan, deb oilamni ko‘chaga chiqarib yuborishgacha borishi hech gap emas. Xullas, viloyat bilan poytaxt orasida qatnayverib, nihoyat bu muammoni ham hal qildik.

Shu bilan tugadi, deysizmi? Yo‘q. Endi bolalarni bog‘cha, maktabga joylash masalasi bor edi. Uyimiz yaqinidagi bog‘cha va maktabga murojaat qildik. O‘rin yo‘q ekan. Bu yog‘i qanday hal bo‘lganini o‘sha paytlari shunday muammolarga duch kelganlar yaxshi biladi...

Davomi 3-betda

## KUN MAVZUSI

### BU YIL TALABALAR KO‘CHADA QOLMAYDIMI?

#### MUTASADDILAR BUNGA IZOH BERADI



**Hayajonli daqiqalar ortda qoldi. Talabalik safiga qabul qilingan yoshlar oldida navbatdagi dovon — turar joy topish masalasi turibdi. Ilm olish uchun olis hududlardan shaharlar markaziga keladigan talabalarning turar joy izlashi yangilik emas.**

Davomi 5-betda

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news

SHARH

# OLIY DAVLATLARARO KENGASH

## O‘ZARO MUNOSABATLARDA QANDAY AHAMIYATGA EGA?

**Sayfiddin JO‘RAYEV,
siyosiy fanlar doktori,
professor**

**O‘zbekistonning do‘stona, yaxshi qo‘shnichilik va tinchlikparvar tashqi siyosatida Ozarbayjon bilan o‘zaro aloqalar muntazam rivojlanib borishi kuzatilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning saylovdan keyingi birinchi davlat tashrifi aynan shu mamlakatga amalga oshirilgani ham o‘zaro munosabatlarning o‘ziga xos ishonchliligi, davomiyligi va istiqbolli ekanidan dalolat beradi.**



Bu galgi tashrif alohida jihatlari bilan ajralib turdi. Ulardan biri, hech shubhasiz, ikki mamlakat Prezidentlari O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida Oliy davlatlararo kengash tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomani imzolagani bo‘ldi. Bu muhim strategik ahamiyatga ega kelishuv hisoblanadi.

Bu kengash mazmuni va ahamiyati nimalarda aks etadi?

Birinchidan, Oliy davlatlararo kengash yangi davrda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, mavjud va kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammolarni, xavf-xatarlarni aniqlash hamda ularni yechish yo‘llarini ishlab chiqish bo‘yicha davlat rahbarlari bevosita rahbarlik qiladigan yangi formatdagi muloqot maydoni hisoblanadi. Bunday institut dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida mavjud bo‘lib, ijobiy natijalarini berib kelmoqda.

Ikkinchidan, oxirgi 30 yil davomida dunyo miqyosida xalqaro tartibotlarning o‘zgarib borishi natijasida vujudga kelayotgan yangi muammolar, yangi muhit davlatlararo diplomatik aloqalarda yangicha yondashuvlarni shakllantirishni talab qilmoqda. Muhimi shundaki, oldingi xalqaro tartibotlarni yirik davlatlar ishlab chiqib, kun tartibini belgilagan bo‘lsa, hozirgi kunda rivojlanayotgan yosh davlatlar ham bunday imkoniyatga ega. Shu ma’noda, ikki davlat o‘rtasida bunday kengash tashkil etilishi strategik sheriklikning barcha imkoniyatlarini ishga solish hamda o‘zaro munosabatlarni uyg‘unlashtirish bilan bir vaqtda, mintaqaviy va xalqaro darajadagi tashabbuslarni ilgari surishning yangi mexanizmlariga asos bo‘ladi.



Uchinchidan, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar, yuqori darajadagi strategik hamkorlik siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va transport-logistika yo‘nalishlarida rivojlanib kelmoqda. Bugungi kunda ushbu jarayonlarni chuqurlashtirish, takomillashtirish bilan bir qatorda, istiqbolli jihatlarni aniqlash hamda mintaqada va jahonda yuz berayotgan jarayonlarning borishi bilan uyg‘unlashtirish kun tartibiga aylandi. Bu borada Oliy davlatlararo kengash ikki mamlakatning siyosiy tajribasi, tashkiliy, ilmiy-tahliliy imkoniyatlardan foydalanib, barcha darajada ochiq va keng ko‘lamli muloqotlar olib borish va zarur strategik qarorlar ishlab chiqishga yangi shart-sharoitlar yaratadi.

To‘rtinchidan, Oliy davlatlararo kengashda muhokama qilinadigan strategik masalalar mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi ko‘p tomonlama munosabatlarni, jumladan, BMT, TDT, MDH, YEXHT, Qo‘shilmaslik harakati va boshqa ko‘p tomonlama institutlar doirasida ham samarali muloqotni davom ettirish va takomillashtirishga qulay imkon beradi.

Bugungi ziddiyatli, oxiri qanday tugashi noaniq bo‘lgan xalqaro vaziyatda ikki va ko‘p tomonlama aloqalarni yo‘lga qo‘yish, manfaatlarni himoya qilish hamda zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi birgalikda harakat qilish, bir-birini va ikki davlatning hududiy yaxlitligini qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini yaratadi.

Beshinchidan, yangi logistika zanjirlarini rivojlantirish va infratuzilmani barpo etish, yuk tashish hajmini ko‘paytirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish, ikki mamlakat hududlararo aloqalarining imkoniyatlarini faollashtirish, yangi kooperatsiya loyihalari, gumanitar almashinuvlarni ilgari surish uchun joylarda muntazam muloqotni kengaytirish va chuqurlashtirishga mustahkam zamin hozirlaydi.

Oltinchidan, barcha yo‘nalish va jabhalardagi bitimlar, kelishuvlar va shartnomalarni samarali amalga oshirish uchun strategik shart-sharoitlar yaratadi.

Fikrimizcha, davlatlararo aloqalar oliy darajada rasmiylashtirilishi, Prezidentlarning bunday formatdagi samimiy uchrashuvi munosabatlarimiz rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, Oliy davlatlararo kengash Ozarbayjon va O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning barcha darajalarini va qirralarini, shakllarini amalga oshirishda siyosiy, tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, insoniy va ijtimoiy resurslarni jadal sur’atlarda safarbar qilish, o‘zaro manfaatli natijalarga erishishning zamonaviy formatdagi siyosiy-diplomatik muloqot shakli sifatida ham ahamiyatli.

Oliy davlatlararo kengashga Prezidentlar boshchilik qilishi esa xalqaro munosabatlarning hozirgi holatida geosiyosiy va geoiqtisodiy shart-sharoitlarni birgalikda chuqur mushohada etishga undaydi. Shu bilan birga, hamkorlikda qarorlar ishlab chiqish va uni amalga oshirishning yangi mexanizmlarini ishga tushiradi hamda o‘zaro strategik sheriklikni chuqurlashtirish kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

HAYOTIMNI O‘ZGARTIRGAN KUN

**Muhammadrasul QODIROV,
tadbirkor**

**O‘tgan asrning 90-yillari boshi. Hali qo‘shni davlatlar bilan chegara o‘tkazish punktlari bo‘lmas, bordi-keldi bemalol zamonlar. O‘sha vaqtda O‘shdan Toshkentga kelib, tijorat ishlari bilan shug‘ullandim, shu yerdan uy olib, qozog‘istonlik qizga uylandim.**

# KELAJAKDAN KO‘NGLIMIZ TO‘Q

Ko‘p o‘tmay, davlatlarimiz mustaqil bo‘lib, chegaralar taqa-taq yopildi. Shunda bizda fuqarolik muammosi paydo bo‘ldi. Na Qirg‘iziston, na O‘zbekiston bizni o‘z fuqarosi sifatida qabul qildi. Aro yo‘lda sarson bo‘lib qoldik.

Mustaqillikning dastlabki yillari hech kimga oson bo‘lmadi. Hamma narsada taqchillik kuzatildi, ro‘zg‘or tebratish qiyin kechdi. Bu yog‘i bozor iqtisodiyotiga o‘tish dedik, boshqa dedik, xullas, mamlakat oyoqqa turishi uchun vaqt kerak bo‘ldi.

Mana shunday davrda biz ikki karra ko‘proq qiynaldik. Bir tomondan, o‘tish davri tashvishi, boshqa tomondan, haq-huquqsizlik muammosi. Hech bir davlat himoyasida emaslik, fuqarosizlik kishi qaddini bukib qo‘yar ekan. Hozir bu xotiralarni yengil aytyapman, lekin uning ortida turgan uqubat va chorasizlik azoblarini boshidan o‘tkazgan odamgina his qilishi mumkinligini ham yaxshi bilaman.

Turmush o‘rtog‘im bilan o‘ttiz yilcha shu muammoga ro‘baro‘ yashadik. Bu orada farzandlarimiz ulg‘aya boshladi. Ularni bog‘chaga, maktabga joylashtirish ham katta muammoga aylandi. Shu bois, bolalarimning ham ko‘ngli o‘ksik edi. Maktabda, mahalladagi tengdoshlari oldida tortinib, qimtinib yurdi.

Bu yillar oralig‘ida fuqarolik olish uchun qilgan harakatlarimiz zoye ketdi. Menda yana bir armon bor edi. Ota-onamni, yaqinlarimni o‘z vaqtida borib ko‘rolmadim, hol so‘rolmadim, yaxshi-yomon kunida ular yonida bo‘lolmadim.

To‘g‘ri, tadbirkorlik qildik, buning ortidan ustimiz but, ro‘zg‘orimiz to‘kis bo‘ldi. Ammo hayotda bir inson baxtli bo‘lishi uchun shuning o‘zi yoki boylik ham kamlik qilishini mana biz yaxshi tushunamiz...

Allohga shukr, O‘zbekistonda yangi davr boshlandi. Bu taqdirimizni ham o‘zgartirib yubordi. Uzoq yillik niyatimizga yetdik. O‘tgan yili menga va oila a’zolarimga O‘zbekiston fuqaroligi berildi.

Bu biz uchun juda katta faxr va sharafligini aytishdan charchamayman. Chunki bugun hayotimiz tubdan o‘zgargan. Hech kimdan kam joyimiz yo‘q. Men pul yoki boshqa moddiy narsalar haqida gapirmayapman. O‘zim, xotinim, farzandlarim qalbidagi to‘liqlik haqida aytyapman.

Yaqinda oilamiz bilan O‘shga borib keldik. Aka-ukalar, opa-singillar, oshna-og‘aynilar bilan diydorlashdik. To‘g‘ri, o‘rtadagi ayriliq qismati o‘rnini to‘ldirib bo‘lmas judoliklar olib kelgan edi. Endi ota-onamiz yo‘q, biz bilgan yaqinlar, do‘stlar safi ham siyraklashgan. Ammo bugungi hayotimizning yangi sur’ati va mazmuni ko‘nglimizni ko‘taradi. Farzandlarimiz kelajagidan ko‘nglimiz to‘qligi uchun ham baxtlimiz.

Bugun qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar juda iliqlashgan, yaxshi qo‘shnichilik aloqalari o‘rnatildi. Bu ham bizni xursand qiladi. Shuning uchun shukrona aytamiz, bugungi ozod va obod hayotimizga ko‘z tegmasin, deya duo qilamiz.

MULOHAZA

# “KO‘RMAGAN”, “O‘RGANMAGAN”

## BUNDAY YONDASHUVLAR BILAN MUAMMONI HAL QILIB BO‘LMAYDI

**Nazira MUXTOROVA,
Jizzax viloyati hokimi o‘rinbosari,
Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i,
Oliy Majlis Senati a’zosi**

**Oilada o‘g‘il farzand tug‘ilsa, ota-onaga g‘urur bag‘ishlaydi, qizaloq dunyoga kelganida-chi, yuraklarni so‘nmas mehr va beg‘ubor quvonch qamrab oladi. U hali o‘zi himoya va parvarishga muhtoj go‘daklik chog‘idanoq qo‘g‘irchog‘iga mehr beradi, uni asrab-avaylab, sochlarini taraydi. Qo‘g‘irchog‘i olib qo‘yilsa yoki yo‘qolib qolsa, xafa bo‘lib qiynaladi, hatto tushlarida ko‘radi. Chunki u mehr-muhabbat tuyg‘ularisiz yashay olmaydigan taqdir bilan tug‘ilgan AYOLdir.**



Ayol borki, mard bir erkakning suyukli yori, aziz farzandlarining mehribon onasi bo‘lishni istaydi. Baxtli oiladagi jonkuyar bekalik vazifasidan keyingina jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ishtiyoqi oshadi. Biroq bugun hamma bekalarning ham turmushi shunday, deb bo‘lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan xabarlardan ko‘rinib turibdiki, hamon oramizda tazyiq va zo‘ravonlikdan aziyat chekayotgan xotin-qizlar bisyor. Bu holatlarning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikdagi ishlar kuchaytirilgan bo‘lsa-da, lekin bunday yondashuv bizga taskin bermaydi. Zero, osoyishtalikda gullab-yashnab borayotgan zaminimizda azobga mubtalo bo‘layotgan ayol bitta bo‘lsa ham uni e’tiborsiz qoldirmaslik, yordam qo‘lini uzatish shu jamiyatda yashayotgan har bir kishining insoniylik burchidir.

Aksariyat hollarda ayollarning o‘limi bilan yakun topayotgan zo‘ravonliklar bois, begunoh farzandlar yetim qolmoqda. Bu kabi vaziyatlarda darrov aybdorni qidirib, “ko‘rmagan”, “o‘rganmagan”, “oila bilan shug‘ullanmagan” kabi almisoqdan qolgan gap-so‘zlar tarqala boshlaydi. Sababchilar tezroq aniqlansayu, ish darrov yopilsa. Aslida, bir ayolning qurbon bo‘lishi bilan bog‘liq ish haqqoniy o‘rganilsa, aybdorlar ko‘p topiladi. Masalan, shunday fojiali voqealardan biri o‘rganilganda, erkak turmush o‘rtog‘ini o‘z himoyasidagi ojiza sifatida ko‘rish o‘rniga hayotdagi butun alamini undan olib, xo‘rlashga odatlangani aniqlandi. Qo‘shnilar oiladagi mojarolar oylab, yillab davom etayotganini bilsa-da, yordam berish o‘rniga tomoshabin bo‘lgani talaygina g‘iybatlardan ma’lum bo‘ldi. Qurbonning qondosh-qarindoshlari esa har safar janjal chiqqanida “Sen ayolsan, mayli, qo‘y, kechir, unut, uyingga qayt”, degan gaplarni aytishdan nariga o‘tmagani achinarli. Mahalla vakillari imkon qadar er-xotinni yarashtirish uchun harakat qilganini ta’kidlaydi, xolos.

Xo‘sh, aybdorlar bir talay yoki bitta bo‘lsin, ularni jazolash bilan jabrdiyda norasidalarning ko‘ngliga taskin berolamizmi? Bu hayotning go‘zal manzillari ham borligiga ularni qayta ishontira olamizmi? Odamiylik, shafqat, sadoqat, mardlik kabi tuyg‘ularni his qilguvchi inson etib tarbiyalay olamizmi? Zo‘ravon erkaklarning harakatlari, o‘z vazifasini qay yo‘sinda uddalayotganini nazorat qilishga kim mas’ul? Yoki shunday mavzularga doir tushuntirish ishlarini ham mutasaddi xotin-qizlar bajarishi kerakmi? Yo‘q, albatta. Qaysi sohada ishlab, qanday sharoitda turmush kechirayotganimizdan qat’i nazar, ota yoki ona sifatida yurtimiz yoshlarining porloq kelajagi uchun mas’ul ekanimizni unutmasligimiz, barcha turdagi tazyiqlarga barham berish ishlariga hissa qo‘shishga vijdonan yondashmog‘imiz lozim.

Odamlarni go‘yoki “ogoh” bo‘lishga undayotgan, oilaviy mavzudagi fojialarni eng avval va eng ko‘proq tarqatishda ilg‘or bo‘lishga urinayotganlar teranroq fikrlab ish tutsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Tarqatilayotgan xabar millatimiz ayolining sha’ni haqida ekani chuqur mulohazalardan so‘nggina so‘z aytishga yoki aksincha, qaror qabul qilishga arzirli masala. Qolaversa, imkoniyat va mahorat turli muammolarga uchrayotgan oilalar haqida tegishli tashkilotlarga xabar berishga, ibratli videolar, qisqa metrajli filmlar targ‘iboti orqali dilxiraliklarning oldini olishga yo‘naltirilsa, foydadan xoli bo‘lmaydi.

Shunday ekan, aziz yurtdoshlar, mehribon buvijon va onalarimizni, opa-singillarimiz, qizlarimizni birgalikda asrab-ardoqlaylik. G‘amxo‘rlik qilaylik, quvonch beraylik. Zotan, otashin yuragi so‘ndirilmagan, muhabbat va sadoqati sindirilmagan ayollar Vatan ravnaqi davomiyligini ta’minlovchi qudratdir.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

# UZOQ YILLIK TANAFFUSDAN KEYIN

## OROLBO‘YIDA KARTOSHKA YETISHTIRILDI

**Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

**Ellikqal’a tumani ovul va mahallalarida o‘z tomorqasidan mo‘l hosil oladigan aholi ko‘pchilikni tashkil qiladi. Xususan, “Aqchako‘l” ovul fuqarolar yig‘inidagi namunali tomorqachilardan biri — Erimmat Reyimbayev o‘zining 0,32 sotix yeriga erta bahordan urug‘ qadaydi. Jumladan, tomorqasida 10 asalari qutisi, ko‘p yillik mevali daraxtlar, 15 tup tok bor. Oila a’zolari o‘zidan ortgan hosilni ichki bozorga sotib, mavsumda 35–40 million so‘mgacha sof daromad oladi. Ayni paytda uning hovlisida ikkinchi ekin — kuzgi piyoz va sarimsoqpiyoz baravj o‘smoqda.**

Zaminimiz unumdor va serhosil. Harakat qilgan inson kaftdek yerdan ham yaxshigina daromad qiladi. “Qavatqal’a” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida istiqomat qiluvchi 63 yoshli Ro‘zigul Ramanova o‘z tomorqasida turli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirib kelmoqda.

— Mehnatimizga yarasha daromad olyapmiz. Nolimaymiz. Farzandlarimiz bilan el dasturxoni to‘kinligini ta’minlash maqsadida mehnat qilyapmiz. Xaridorlarning o‘zlari uyimizdan olib ketadi, — deydi Ro‘zigul opa.

Darhaqiqat, mehnat qilgan kam bo‘lmaydi. Hozirgi vaqtda o‘z tomorqasidan mo‘maygina daromad olayotgan oilalar soni kun sayin ko‘paymoqda. Tumandagi Alisher Navoiy nomidagi ovul fuqarolar yig‘ini hududi sabzavotchilikka ixtisoslashgan qishloq. Bu manzilda ham yerdan unumli foydalanayotgan xonadonlar ko‘p.

Hududdagi Saparbayevlarning 14 sotix tomorqasi va 4 sotix issiqxonasi bor. Xonadon sohiblari 2-marta pomidor, oshqovoq, turli ko‘katlar, qizil lavlagi yetishtiradi. Issiqxonaning 2 sotixli yerida esa 35 tup limon daraxti parvarishlanmoqda.

— Birgina anjir mevasidan kuniga 200-300 ming so‘mlik hosilni ovul aholisi o‘zlari kelib olib ketadi, — deydi Ziyoviddin Saparbayev.

Tomorqa — farovonlik va daromad manbayi. Undan oqilona foydalanayotgan qishloq tadbirkorlari aslo kam bo‘layotgani yo‘q. Mehnatdan kelayotgan daromad turmush sharoitini yaxshilash, obodonlashtirish, farzandlar ta’limiga, undan ham ortsa, yengil mashina olishga, to‘ylarga sarflanadi.



Qorao‘zak tumani “Qorao‘zak” ovul fuqarolar yig‘inida tomorqadan samarali foydalanib kelayotgan Quvondiq Aqulov suv taqchilligiga qaramasdan, 20 sotixli tomorqasidan yaxshigina daromad olishga erishyapti. Oilasidan ortgan poliz mahsulotlarini bozorga olib chiqadi. Umuman, tomorqadan foydalanishni oqilona tartibga qo‘yishgan.

Joriy yilda suv taqsimotining to‘g‘ri tashkil etilishi tufayli eng chekka hududlarga ham suv yetib bordi. Natijada “Qoro‘zak” ovul fuqarolar yig‘ini ham suv bilan ta’minlandi.

Taxtako‘pir tumani “Qorateren” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi “Yerejep Dao‘qara” fermer xo‘jaligi rahbari Berdax Tajimuratov esa joriy yil o‘z tasarrufidagi yer maydonlarida suvni kam iste’mol qiladigan kunjut, mosh, kartoshka, jo‘xori ekdi. Bu ham mavjud shart-sharoit, imkoniyatga qarab dehqonchilik uchun o‘zlari istagan ekin turini tanlash erkinligi mavjudligini anglatadi.

Qo‘ng‘irot tumanining geografik joylashuvi esa sug‘orishga qulay, tuprog‘i hosildor. Dehqonlari yilning to‘rt faslida ham mo‘l hosil oladi. Duzelbay og‘a Sadikovning yoshi 70 dan oshgan. Uzum, olma, anjir, anor singari mevalarning barchasini og‘aning bog‘idan topsa bo‘ladi. Shu bilan birga, uzumning sovuqqa chidamli navlaridan ko‘chat ham yetishtirib, bozorga chiqaradi.

Tumandagi “Mingjargan” mahalla fuqarolar yig‘inida istiqomat qiluvchi Jumabay og‘a Bekbauliyev ham tomorqasida bog‘ yaratgan. Xalqimiz “Yaxshidan bog‘ qolar”, deb bejiz aytmagan.

— Bog‘ yaratsang, oilangga, atrofdagilarga ham foydasi tegadi. Bir qarashda bog‘ yaratish unchalik qiyin emasdek ko‘rinadi. Ammo u muntazam, aytish mumkinki, yil bo‘yi parvarish talab etadi. Qisqa vaqt e’tiborsizlik oylab, yillab qilgan mehnatingizni puchakka chiqaradi. Qolaversa, erta bahorda boshlangan mehnatlaringiz samarasini kuzga boribgina olasiz. Ammo afsuslanmaymiz, mo‘l hosil olganda charchoqlarimizni unutamiz. Xonadonga baraka keltirayotgan bog‘imiz yashnaganidan ko‘nglimiz quvnaydi,— deydi 73 yoshni qarshilagan nuroniy bog‘bon Jumabay og‘a Bekbauliyev.

Bugungi kunda suv taqchilligi, Qoraqalpog‘istonning iqlim sharoitiga mos keladigan qishloq xo‘jaligi ekinlari ekish, xaridorgir mahsulotlar yetishtirishni kengaytirish, tajribali olimlar bilan birga ishlash masalalari ko‘rib chiqilmoqda.

Aholini oziq-ovqat xavfsizligi va ichki iste’molni sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Bu yo‘nalishda suvdan oqilona foydalanishga alohida e’tibor qaratilib, tashkiliy ishlarni samarali boshqarish va suvning to‘g‘ri taqsimlanishi tufayli Orolbo‘yi hududida ham uzoq yillardan buyon birinchi marta kartoshka yetishtirilib, bozorga chiqarildi.

www. | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news

YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

# O‘ZGARAYOTGAN TARTIB-TAOMILLAR

## ODAMLARGA QANDAY QULAYLIK TUG‘DIRMOQDA?



**Lutfulla SUVONOV,**
**“Yangi O zbekiston” muxbiri**

Boshlanishi 1-betda

Shularni yozyapman-u, ko‘z oldimdan hammasi tizilib o‘tyapti. Ochig‘ini aytsam, bugun u paytlardagi shunga o‘xshash ko‘p mantiqsiz tartibotlar tashvishlarini unutib yuboribmiz. Bugungi oson va yengilgina bitayotgan ishlarimizning bari o‘zidan-o‘zi bo‘layotgandek. Bu fikr o‘tgan hafta eski namunadagi haydovchilik guvohnomamni almashtirish uchun Davlat xizmatlari markaziga kirib, ishim o‘n besh daqiqada hal bo‘lganida xayolimga keldi.

E’tibor qilyapsizmi, men o‘n besh kun yoki o‘n besh soat emas, bor-yo‘g‘i o‘n besh daqiqa deyapman. Nafsilamrini aytganda, siz ham, men ham bir vaqtlar, yaqin-yaqingacha hujjatlar to‘la sumkani ko‘tarib, idora-ma-idora sarson yurganlarni har kuni ko‘p ko‘rardik. O‘zimiz ham ular qatorida edik.

Endi shunday tartib-qoida bilan bog‘liq navbatdagi bir voqeani aytib o‘tmasam bo‘lmaydi. 2019-yili yana bir farzandli bo‘ldim. Unga tug‘ilganlik haqida guvohnoma olishim, so‘ng ro‘yxatga qo‘yishim kerak.

Shu o‘y bilan tuman FHDYO bo‘limiga bordim. Kerakli hujjatlarni olib, birpasda guvohnoma berishdi. Hatto uyimiz yaqinidagi bog‘chaga navbatga qo‘yishganini ham aytishdi. Avvaliga, buyam bir yo‘lida, navbat kelganda biror bahona topib qabul qilolmaymiz, deyishadi deb o‘yladim. Unday bo‘lmadi. Farzandim 3 yoshga to‘lgan kuni uni bog‘chaga olib borishim mumkinligi to‘g‘risida Davlat xizmatlari markazidan telefonimga xabarnoma kelib tushdi. Bunga nima deysiz? Axir biz farzandimizni bog‘chaga joylash uchun ancha sarson bo‘lardik-ku...

Mana shu misollarning o‘ziyoq keyingi yillarda “Avval — inson, keyin — jamiyat va davlat”, “Inson qadri uchun” degan tamoyillar oddiy odamlar hayotida aks etayotganini ko‘rsatadi.

Bugungi maqolamizda amalga oshirilgan islohotlarning faqatgina bir yo‘nalishiga e’tibor qaratishni istadik. Zero, bu borada amalga oshirilgan tub islohotlar, sa’y-harakatlarni bitta maqolaga qamrab olish imkonsiz.

Demak, aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimidagi o‘zgarishlar haqida.

Ta’kidlash kerakki, Davlat xizmatlari agentligi tezkor, qulay va shaffof xizmatlari bilan qisqa muddatda har bir oilaga kirib bordi. Aholiga yaratilgan barcha sharoit vaqtni tejash, turli ovoragarchilik va xarajatlarning oldini olish imkonini berdi. Shu tariqa aholi hamda tadbirkorlik subyektlariga qulay va tezkor davlat xizmatlarini taqdim etishning zamonaviy infratuzilmasi barpo etildi.

Bu qanday bo‘lgan edi? Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o‘tishini ta’minlash maqsadida 2017-yilda har bir tuman va shaharda Davlat xizmatlari markazi ish boshladi. Shu tariqa soha isloh qilinib, “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” tamoyili asosida davlat xizmatlari ko‘rsatish mexanizmi joriy qilindi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bu markazlar orqali ko‘rsatilayotgan xizmat turlari besh yil davomida sakkiz barobar ortib, 37 tadan 302 taga yetdi. Ahamiyatlisi ko‘rsatilayotgan xizmatlarning 57 tasi bepul. Hozir markazlarda 2 mingdan ziyod xodim mehnat qilmoqda.

2018-2023-yillar davomida aholi va tadbirkorlik subyektlariga 302 turdagi 47 milliondan ortiq davlat xizmatlari ko‘rsatilgan.

Davlat xizmatlari ko‘rsatish va ushbu sohani rivojlantirishda aholiga yanada qulaylik yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, so‘nggi 3 yilda davlat xizmati ko‘rsatishni sifat jihatdan yaxshilash va modernizatsiya qilish bo‘yicha 150 dan ortiq qonun hujjati ishlab chiqildi. Natijada 200 dan ortiq davlat xizmati qayta ko‘rib chiqilib, soddalashtirildi, talab etiladigan hujjatlar soni 2 barobar qisqartirildi.

2017-yilga qadar tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun kamida 5-6 turdagi hujjat talab qilingan bo‘lsa, hozir faqat 1 ta hujjat asosida amalga oshirilib, bu jarayonda kompozit tarzda qo‘shimcha 4-5 ta xizmatdan foydalanish imkoni yaratilgan.

Yoki yana bir qulaylik. 2019-yilga qadar aholi va tadbirkorlar davlat xizmatlaridan faqat doimiy yashash joyi bo‘yicha foydalana olar edi. O‘sha yildan boshlab esa jismoniy va yuridik shaxslarda istalgan manzilda, eksterritorial tamoyil bo‘yicha bu xizmatlardan foydalanish imkoni paydo bo‘ldi. O‘tgan davr mobaynida shu imkoniyatdan 30 milliondan ortiq fuqaro va tadbirkor foydalandi. Xorijga chiqish biometrik pasporti va ID-karta rasmiylashtirish, FHDYO tizimidagi xizmatlar shular jumlasidan.



**2022-yil 1-avgustdan davlat xizmatlaridan foydalanishda shaxsni identifikatsiya qilishning “Mobil-ID” tizimi joriy etildi. Ushbu tizim orqali 930 mingdan ortiq fuqaro identifikatsiyadan o‘tdi. Ushbu tizim fuqarolarga elektron raqamli imzo orqali barcha davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratdi.**



Natija: bu, avvalo, aholining vaqt va mablag‘ini tejash imkonini berdi. Keling, yana bir misol keltiramiz. Yaqinda bir do‘stim ukasini Toshkentdagi uyiga doimiy ro‘yxatga qo‘ymoqchi ekanini, shu bo‘yicha tuman pasport stoliga borib ma’lumot olishi kerakligini aytib qoldi. Shanba kuni edi, birga bordik.

Bu yerdagi xodim juda qisqa va aniq ma’lumot berdi. “Avval otangizni doimiy ro‘yxatga qo‘yasiz. Buning uchun otangizning pasporti, ukangizning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasi va uylanmaganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma olib kelasiz”, dedi. “Ma’lumotnomani Davlat xizmatlari markazidan olasiz”, qo‘shimcha qildi u. Toshkentdagi markazdan olsak ham bo‘ladimi, degan savolimizga “farqi yo‘q”, deb javob berdi. “Shu hujjatlarni olib kelsak, doimiy ro‘yxatga qo‘yish uchun qancha kun kerak bo‘ladi?”. “Bir soatga ham bormaydi”, degan javobni eshitib, ochig‘i, hayron bo‘ldik. Tizim shunchalar o‘zgarib ketdimi?!

Qoyil. Avval-ku, poytaxtga doimiy ro‘yxatga qo‘yish haqida o‘ylamasdik ham. Imkoni yo‘q edi. Bir amallab ilojini topgan taqdirda ham, olis tumandagi pasport stoliga borib, uzoq navbat kutib pasportni doimiy ro‘yxatdan chiqarish kerak, buning uchun, avvalo, Toshkentdagi pasport stolidan ma’lumotnoma olib borish shart bo‘lardi. Bunga haftalab vaqt, mablag‘ sarflardik.

Navbatdagi raqamlarga e’tibor bering. 2017-yilga qadar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda 400 dan ortiq faoliyat turi uchun tegishli litsenziya yoki ruxsatnoma olish talab etilgan. So‘nggi besh yilda esa ulardan 132 tasi bekor qilindi, shuningdek, bu yo‘nalishda 34 faoliyat turi xabardor etish tartibiga o‘tkazildi.

Bu jarayon yil sayin takomillashib, soddalashib bormoqda. Xususan, aholiga qulaylik yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim yo‘nalish — litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish maqsadida Prezidentning 2020-yil 24-avgustdagi “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan litsenziyalash sohasida jami 52 tartib-taomil bekor qilindi hamda 23 faoliyatni vakolatli organni xabardor qilgan holda boshlash tartibi yo‘lga qo‘yildi. “Litsenziya” axborot tizimi ishga tushirilib, bugungi kunda 112 turdagi xizmat ko‘rsatilmoqda.

Natija: litsenziya va ruxsatnomalardagi mavjud 15 mingdan ortiq talab va shartlar 2 barobar, litsenziya va ruxsatnomalarni rasmiylashtirib berish muddati 2-3 barobar qisqartirildi. Ularni maxsus blankalarda chop etish uchun har yili sarflanadigan 13 milliard so‘mlik mablag‘ va tonnalab qog‘oz tejalishiga erishildi. Fuqarolarning 5-10 idoraga borib kelishiga chek qo‘yildi.

To‘liq elektron tizim orqali 80 dan ortiq litsenziya beriladigan bo‘ldi. Natijada 40 ming fuqaroning litsenziyalovchi organlarga ovora bo‘lib borib-kelish amaliyoti barham topdi. Bu shu kunga qadar aholi va tadbirkorlarning 2 milliard so‘mga yaqin mablag‘i tejalishiga yo‘l ochdi.

Yana bir ahamiyatli jihat. FHDYO arxivlarida saqlanayotgan qog‘oz shaklidagi 60 milliondan ortiq arxiv ma’lumotlari to‘liq raqamlashtirildi.

Tegishli qonunchilik hujjatlari bilan aholi va tadbirkorlik subyektlaridan 2019-yildan boshlab bosqichma-bosqich jami 120 hujjatni talab qilish bekor qilindi. 2019-yilga qadar bunday amaliyot mavjud emas edi. Natijada 120 turdagi hujjatlar qisqartirildi. Yiliga o‘rtacha 25 million aholiga qulaylik yaratildi, ularning 300 milliard so‘mdan ortiq mablag‘i tejalishiga erishildi.

Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimidagi yangiliklar haqida ko‘p gapirish mumkin. Shulardan biri 2021-yildan e’tiboran ilk bor davlat xizmatlarini kompozit tarzda ko‘rsatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilganidir. Hozirda 31 davlat xizmati o‘zaro kompozit tarzda ko‘rsatilmoqda, 2 turdagi davlat xizmati proaktiv shaklda ko‘rsatilmoqda.

2021-2022-yillar davomida 16 turdagi davlat xizmati uchun to‘lovlar miqdori keskin kamaytirildi, 2 turdagi xizmat uchun to‘lov undirish bekor qilindi.

2022-yildan “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida ro‘yxatga olingan hamda I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq to‘lovlar bo‘yicha 50 foiz chegirma qo‘llanilishi yo‘lga qo‘yildi.

Biz bugun ijtimoiy davlat qurish yo‘lidamiz. Buni konstitutsiyaviy asosda ham mustahkamlab qo‘ydik. Endi bu tamoyil epkinlarini xalqimiz o‘z hayotida sezishi uchun harakat qilmoqdamiz. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida ro‘yxatga olingan shaxslar va ularning farzandlari hamda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yigit-qizlar oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishda test sinovlarida ishtirok etish uchun undiriladigan to‘lovdan ozod etilgani bu boradagi dastlabki qadam, deyish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz bo‘yicha bir kunda o‘rtacha 45-50 ming aholi davlat xizmatlari markazlari xizmatidan foydalanmoqda. Xususan, birgina joriy yilning olti oyi davomida 5,5 milliondan ortiq davlat xizmatlari ko‘rsatilgan.

Olis va chekka hududda yashovchi fuqarolarga yengillik yaratish, ularning vaqtini tejash maqsadida 900 mingdan ortiq sayyor (mobil) davlat xizmatlari ko‘rsatilgan. Fuqarolar ovoragarchiligining oldini olish maqsadida tuman (shahar) markazidan 50-100 kilometr uzoq hududlarda 141 filial tashkil etildi. Qisqa muddatlarda barcha markazlarni zamonaviy bino bilan ta’minlash choralari ko‘rildi va bu jarayon davom etmoqda.

2022-yil 1-avgustdan davlat xizmatlaridan foydalanishda shaxsni identifikatsiya qilishning “Mobil-ID” tizimi joriy etildi. Ushbu tizim orqali 930 mingdan ortiq fuqaro identifikatsiyadan o‘tdi. Ushbu tizim fuqarolarga elektron raqamli imzo orqali barcha davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratdi.

Masalan, hozirda 3,1 milliondan ortiq faol elektron imzo mavjud bo‘lib, ularning amal qilish muddati 2 yilni tashkil etadi. “Mobil-ID” tizimi esa mobil aloqa xizmatlaridan foydalanayotgan 24 million aholi uchun alohida flesh-kartani olib yurmasdan xizmatlardan foydalanish imkonini beradi.

Davlat organlarining ish uslubi o‘zgarib, sohani raqamlashtirish choralari ko‘rilyapti. Natijada aholining elektron (masofaviy) davlat xizmatlaridan foydalanish ulushi 15 foizdan oshdi.

O‘z navbatida, davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasini rivojlantirish borasida hali qilinadigan ishlar talaygina. Ekspertlar fikricha, bugungi kunda barcha davlat xizmatlarini kompleks rivojlantirish va raqamlashtirish bo‘yicha dasturiy hujjat mavjud emas. Barcha davlat idoralari xizmatlarini o‘ziga mos tarzda ko‘rsatmoqda. Vaholanki, davlat xizmatini ko‘rsatishda, birinchi navbatda, aholi manfaatlari va ularga qulaylik nuqtayi nazaridan yondashish lozim.

Ko‘rsatilayotgan xizmatlar ulushida elektron davlat xizmatlaridan foydalanish kam miqdorda. Shu sababli elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha ham davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. Bu esa mamlakatda qulay ishbilarmonlik muhitini yanada rivojlantirish, foydalanuvchilarga sifatli va tezkor davlat xizmatlarini taqdim etish imkonini beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, sohadagi islohotlar aholining davlat xizmatlariga talabini samarali qondirish, mustaqil ravishda masofadan turib foydalanish imkoniyati oshishi, davlat xizmatlarining barcha hududlarga kirib borishi, aholi va tadbirkorlarga qator yo‘nalishlarda qulayliklar yaratilishiga xizmat qiladi.

---

INSON QADRI

# TA’LIM OLISHDAGI TENGLIK

## IJTIMOIY SIYOSATDA FOYDA BERADI

**Ta’lim jamiyat va shaxs rivojlanishining asosi bo‘lib, ijtimoiy siyosat barcha fuqarolar uchun ta’limdan teng foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Ta’lim sohasidagi ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalaridan biri – ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurash. Jamiyatda sifatli ta’lim olish imkoniyatlari cheklangan turli ijtimoiy guruhlar mavjud. Shu sabab ham ijtimoiy siyosat barcha fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy mavqei va kelib chiqishidan qat’iy nazar, ta’lim olish uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘ladigan sharoitlarni yaratishga qaratiladi.**

**Umida RAHMONOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**



Inklyuziv ta’lim bu — barcha bolalar, shu jumladan, alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan o‘g‘il-qizlarning ta’lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratilishini nazarda tutuvchi yondashuv, tizim hisoblanadi. Dunyoning aksariyat mamlakatlari shunday ta’limning muhimligini tan oladi va uni o‘z tizimlarida joriy etgan. Jumladan, Shvetsiyada maxsus ta’limga muhtoj bolalarning 90 foizidan ortig‘i oddiy maktablarda o‘qiydi. Norvegiya va Finlyandiyada davlat maktablarida barcha bolalarni o‘quv jarayoniga qamrab olishni talab qiladigan qonunlar qabul qilingan.

O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimi hamda qonunchiligini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yilmoqda.

Hozircha barcha bolalar ham umumta’lim maktablarida bir xil imkoniyat va sharoitda ta’lim olishini tashkil etish ishlari to‘liq yo‘lga qo‘yilgan, deb aytolmasak-da, jismoniy yoki aqliy nuqsoni bor o‘g‘il-qizlar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari ishlab turibdi.

Inklyuziv ta’limni ota-onalar o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida 13 nomdagi metodik qo‘llanmalar tayyorlandi. Bundan tashqari, nuqsoni bor bolalarning imkoniyat va salohiyatini to‘g‘ri baholash maqsadida chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xususan, Jizzax, Samarqand viloyatlari hamda Toshkent shahridagi eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning 1500 nafardan ziyod o‘quvchisi Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi malakali shifokorlari tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadlaridan biri ta’limdagi ijtimoiy tengsizlik va kamsitishlarni bartaraf etishdir. Qolaversa, o‘quvchilarda bag‘rikenglik va o‘zgalarni boricha qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirib, nogironligi bor bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishini yengillashtiradi.

Ammo uni tashkillashtirishda bunday bolalar bilan ishlay oladigan malakali kadrlar yetishmasligi ko‘plab to‘siqlarni yuzaga keltirishi mumkin. Istaymizmi-yo‘qmi, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlash o‘qituvchidan mustahkam bilim va malaka talab qiladi. Shu bois, bu turdagi muassasalar mutaxassislari va rahbar-xodimlari uchun vaqti-vaqti bilan forumlar, seminarlar o‘tkazilishi an’anaga aylangan. Joriy yilda ham Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda Sirdaryo viloyatidagi “Nurli maskan” maktab-internatida “Nurli maskan orzulari” mavzusida respublika forumi tashkil qilindi.

Bundan tashqari, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etildi.



Ikki yildan buyon yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlashning yangi tartibi o‘rnatildi. Xususan, o‘zlariga biriktirilgan turar joyga ega bo‘lmagan va uyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ular 18 yoshga to‘lgan yilda ko‘p kvartirali uy-joylardan umumiy maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan 1 xonali, voyaga yetgan yetim bolalar o‘rtasida nikoh tuzilgan hollarda, 50 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan 2 xonali kvartiralar ajratilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan uy-joyga muhtoj 832 yigit-qiz ro‘yxati shakllantirilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etildi. 424 nafari uchun davlat va mahalliy budjetdan mablag‘ ajratildi. 23-30 yoshda bo‘lgan yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan 59 bolaga “Mehr daftari” jamg‘armasi hisobidan uy-joy olib berilishiga yordamlashildi.

Aholining yarmini yoshlar tashkil qiladigan mamlakatimizda ta’lim muassasalarida ijtimoiy himoyaga alohida e’tibor talab etiladi. Boshqacha aytganda, biz ijtimoiy davlat ekanimizni, eng avvalo, ta’lim tizimidagi amaliy ishlar bilan ko‘rsatishimiz lozim. Ushbu maqsad nafaqat inklyuziv ta’limni, balki o‘qituvchi va murabbiylar, barcha o‘quvchilar uchun ijtimoiy adolatni ta’minlashdek o‘ta dolzarb maqsadlarni ham qamrab oladi.

MAHALLIYLASHTIRISH



# “ZANJIR” MUKAMMAL ISHLASA, NATIJA KUTTIRIB QO‘YMAYDI

**Yangi mahsulotlar orasida palladiy metali, nasos, flotamashina va shaxta elektrovozlari uchun ehtiyot qismlar, molibden va volfram tuzi, yuqori haroratga chidamli keramik mahsulotlar, volfram karbidi, shamot g‘ishtlari, sferali sharli tayanchlar, ferromolibden alohida o‘rin tutadi. Ularning hisobiga import 17,6 million dollarga maqbullashtirildi.**



**Abdulla XURSANOV,**
**“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi**

Boshlanishi 1-betda

Mahalliylashtirish loyihalarining maqsadi importni qisqartirish hisobiga valyuta mablag‘larini tejash, yangi ish o‘rinlari yaratish, shuningdek, korxonalarning eksport salohiyatini oshirishdan iborat. Shu bois, tashqi bozorlardagi o‘zgaruvchanlik sharoitida iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash uchun ichki imkoniyatlarni ishga solish, import qilinayotgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va mahalliy sanoatni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilyapti.

Prezidentimizning 2021-yil iyul oyida Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashrifi chog‘ida yangi barpo etilayotgan ishlab chiqarish obyektlariga zarur bo‘ladigan ehtiyot qismlarni mahalliylashtirish asosida shu yerning o‘zida ishlab chiqarish vazifasi qo‘yilgan edi. Shundan kelib chiqqan holda, Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2021-yilda 87 ta loyiha bo‘yicha 217,2 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi yoki reja 134,5 foizga bajarildi. Natijada import o‘rnini bosish samaradorligi 20,1 million dollarga teng bo‘ldi. 2022-yilda esa 334,1 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o‘sish sur’ati 153,8 foizga, import o‘rnini bosish samaradorligi 29,7 million dollarga yetdi.

Kombinatning ishchi guruhi tomonidan o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasiga ko‘ra, tarkibiy bo‘linmalar tomonidan 2 ming 500 dan ortiq mahsulot import qilinishi aniqlandi. Ushbu ehtiyojmand tovarlar ro‘yxati 2022-yil 11-12-oktabr kunlari Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida tashkil etilgan tarmoqlararo sanoat yarmarkasida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga taqdim etildi. Tadbirda 300 dan ziyod ishlab chiqaruvchilar, ulardan 62 tasi o‘zlari o‘zlashtirgan 1000 dan ortiq mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

Yarmarka davomida “yuzma-yuz” formatda uchrashuvlar tashkil etilib, OKMK texnik talablariga javob bera oladigan mahsulotlarni o‘zlashtirish masalalari muhokama qilindi. 2026-yilgacha mahalliylashtirish dasturi doirasida innovatsion loyihalar, ilmiy sohadagi ixtirolar, mahalliylashtirilgan mahsulotlarning yangi turlarini tayyorlash bo‘yicha taqdimotlar o‘tkazildi. Natijada mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan 326 turdagi mahsulotni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish yuzasidan 961,7 milliard so‘mlik memorandum va kelishuvlar imzolandi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish doirasida hamda import hajmini qisqartirish maqsadida jami 1,1 trillion so‘mlik mahsulotlarni xarid etish bo‘yicha shartnomalar tuzildi, uning 727,3 milliard so‘mlik qismi kooperatsiya portali orqali tuzilgan bitimlar hisoblanadi.

Shu kabi ishlarning samarasi tufayli 2022-yilda kombinat bo‘yicha import 120 million dollardan ziyodroqqa qisqartirildi. Jumladan, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi aloqalarini kengaytirish hisobiga 27,5 million dollardan ortiq importga bo‘lgan ehtiyoj qondirildi.

2023-yilda dasturdagi 137 ta loyiha asosida 324,5 milliard so‘mlik mahsulot



ishlab chiqarish belgilangan bo‘lib, aprel-iyul oylarida dasturga 3,7 milliard so‘mlik 6 ta yangi loyiha kiritildi. Natijada loyihalar soni 143 tani, prognoz ko‘rsatkichi 325,4 milliard so‘mni tashkil etdi. Ushbu davrda 139 ta loyiha bo‘yicha 202,4 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, reja 116,8 foizga bajarildi, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 125 foizni tashkil etdi.

Yangi mahsulotlar orasida palladiy metali, nasos, flotamashina va shaxta elektrovozlari uchun ehtiyot qismlar, molibden va volfram tuzi, yuqori haroratga chidamli keramik mahsulotlar, volfram karbidi, shamot g‘ishtlari, sferali sharli tayanchlar, ferromolibden alohida o‘rin tutadi. Ularning hisobiga import 17,6 million dollarga maqbullashtirildi.

Avvallari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish asosan ikki yo‘nalishda amalga oshirib kelinardi: mavjud va yangi quvvatlarda mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish hamda ichki kooperatsiya aloqalarini kengaytirish. Bugungi kunda mazkur yo‘nalishlar yanada kengaytirilib, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda va shatakka olish tizimi asosida yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish o‘zlashtirilmoqda.

Masalan, Germaniyaning “Falk Porsche Technik GmbH” kompaniyasi bilan birgalikda Chirchiq shahridagi “Deutsche innovationen Technologie AGMK” qo‘shma korxonasida kimyoviy chidamkor geokompozit mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi va 60 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Joriy yilda ushbu korxona tomonidan rux zavodini modernizatsiya qilish uchun 60 milliard so‘mlik mahsulot yetkazib berildi.

Hozirda 50 ming tonna misni qayta ishlashga mo‘ljallangan, qiymati 20 million dollar va 200 ta yangi ish o‘rni yaratiladigan “Misdan katanka va yangi turdagi kabel mahsulotlarini ishlab chiqarish” quvvatlari barpo etilyapti. Uning yillik ishlab chiqarish hajmi 450 million dollarni tashkil etadi.

Yangi qurilayotgan Mis eritish zavodi tarkibida “Mis katodlari elektrolizlari uchun polimerbeton vannalar ishlab chiqarish” loyihasi amalga oshirilyapti. Bunda 1 ming 500 dona elektroliz vannalari tayyorlanib, metallurgiya majmuasini qurishda ishlatiladi. Buning evaziga loyiha qiymati 10 million dollargacha qisqaradi.

“Yangi turdagi sanoat elektr dvigatellarini ishlab chiqarish” loyihasiga ham germaniyalik hamkorlar qiziqish bildirdi. Loyiha ishga tushgach, import qilinayotgan elektr dvigatellarga ehtiyoj qolmaydi.

Qiymati 10 million dollar bo‘lgan “Kimyoviy chidamkor shisha tolali mahsulotlar” loyihasini amalga oshirish orqali chet eldan xarid qilinayotgan quvur, rezervuar baklar va boshqa mahsulotlar mahalliylashtirilsa, “Avantec GP” qo‘shma korxonasida gorizontal tokarlik frezerli ishlov berish raqamli dastgohlari ishlab chiqariladi.

Shuningdek, Xitoyning 12 ta yirik kompaniyasi bilan hamkorlikda yiliga 50 ming elektromobil ishlab chiqarish, mis kabellari va folgasi, elektromobillarni zaryadlash uskunalari kabi qo‘shimcha qiymatli mahsulotlarni o‘zlashtirish, yuk avtomobillari va maxsus texnikalar uchun ehtiyot qismlar yasash, avtomatlashtirish va raqamlashtirish kabi loyihalar ustida ish olib borilyapti.

“Olmaliq quyuv mexanika zavodi” korxonasida qiymati 20 million dollar bo‘lgan “Tog‘-kon sanoati uchun quyma mahsulotlar va ehtiyot qismlarni o‘zlashtirish” loyihasi bo‘yicha qurilish ishlari yakunlandi va 200 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Yana bir e’tiborli jihati, kombinatda qiymati 500 million dollar, quvvati 55 ming tonna quyma mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo‘ljallangan yangi mashinasozlik zavodi quriladi. “Mis klasterini rivojlantirish” loyihasi doirasida 78 million dollarlik misdan lenta va listlar, folga, katanka, burchakli simlar ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Bugungi kunda “shatakka olish” tizimi asosida 10 dan ortiq mahalliy ishlab chiqaruvchilar kombinatga o‘z mahsulotlarini yetkazib bermoqda. “Nurafshon maxsus texnikalar” korxonasi bilan hamkorlikda 220 tonnagacha yuk ko‘taradigan avtosamosvallar ishlab chiqarish, “O‘zbekiston temir yo‘llari” jamiyatining “Quyuv mexanika zavodi” korxonasida temir yo‘l transporti uchun 100 ga yaqin turdagi quyma mahsulotlar ishlab chiqarish loyihalari o‘zlashtirilmoqda. “Karbon polimer” korxonasi tomonidan polimer, ftoroplast va grafitdan turli ehtiyot qismlar tayyorlash ustida ish ketayotgan bo‘lsa, “Zhongtiang Chemical” qo‘shma korxonasida kombinat uchun zarur bo‘lgan kimyoviy reagentlar tayyorlanmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, ichki talabni o‘rganish — importni tahlil qilish — resurs bazasini aniqlash — yangi loyihalar ishlab chiqish “zanjiri” asosida loyihalar yo‘lga qo‘yilsa, natijalar, albatta, ijobiy bo‘ladi.



**2023-YILDA DASTURDAGI 137 TA LOYIHA ASOSIDA 324,5 MILLIARD SO‘MLIK MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH BELGILANGAN BO‘LIB, APREL-IYUL OYLARIDA DASTURGA 3,7 MILLIARD SO‘MLIK 6 TA YANGI LOYIHA KIRITILDI. NATIJADA LOYIHALAR SONI 143 TANI, PROGNOZ KO‘RSATKICHI 325,4 MILLIARD SO‘MNI TASHKIL ETDI. USHBU DAVRDA 139 TA LOYIHA BO‘YICHA 202,4 MILLIARD SO‘MLIK MAHSULOT ISHLAB CHIQARILIB, REJA 116,8 FOIZGA BAJARILDI, BU O‘TGAN YILNING MOS DAVRIGA NISBATAN 125 FOIZNI TASHKIL ETDI.**

QISHLOQ XO‘JALIGI

# DEHQONNING XAZINASI



**Feruza JO‘RAYEVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

**“Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida qilinayotgan ishlar mavjud imkoniyatlar, xomashyo resurslari, infratuzilma holati, ishchi kuchi ixtisoslashuvidan oqilona foydalanib, daromad ko‘rish imkonini bermoqda. Aholi tomorqasida yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xorijga eksport qilinishiga ham shu tamoyil keng yo‘l ochmoqda.**
**Angor tumanidagi Bahor mahallasining asosiy drayveri dehqonchilik. 300 gektardan ortiq aholi tomorqasida karam, sarimsoqpiyoz, daykon, rediska va sholg‘om, lavlagi kabilar ekiladi. Birgina 2022-yilda mahalla dehqonlari tomonidan 92 milliard so‘mlik 28 ming tonna mahsulot yetishtirilib, 20 ming tonnasi eksportga chiqarilgan. Mahalladagi hokim yordamchisining aytishicha, joriy yilda 35 ming tonna mahsulot yetishtirish rejalashtirilgan.**



Rashid Galiyev olgan surat.



## BIR MAVSUMDA 80 MILLION SO‘MGACHA DAROMAD

Mahallada yashovchi Gulxol Ravshanovaga qarashli 20 sotix tomorqada iyun oyi boshida 20 mingga yaqin karam niholi ekilgan. Sentyabr oyiga kelib, bir dona karam 3 kilogrammgacha tosh bosadi.

Asosiy vaqti nihol parvarishlash bilan o‘tadigan dehqon opaning turmushi, o‘y-fikrlari yerga bog‘langan. Suhbat chog‘ida mirishkor oila farovonligi, dasturxon to‘kinligi va ro‘zg‘or kam-ko‘stini to‘ldirishda tomorqadan olinayotgan daromadning o‘rni beqiyosligi, dehqonning xazinasi yer ekanini ko‘p ta’kidladi. Gulxol opaning so‘zlarini tinglab, u dehqon oilasida katta bo‘lgan, yoshligidan yer bilan tillashish hadisini olgan degan xayolga bordik. Unday emas ekan.

— Asl kasbim — o‘qituvchi, hozir nafaqadaman, — deydi Gulxol Ravshanova. — Qo‘shni tumandan kelin bo‘lib tushganman. Ziyoli oilada katta bo‘lganman. Tomorqamiz kichkina edi. Dehqonchilik bilan shug‘ullanmasdik. Bu yerga kelgach, mahalla ahli yetishtirayotgan ekinlar, olayotgan hosilni ko‘rib, dehqonchilikka mehrim oshgan. Tomorqadan qo‘shimcha daromad olish istagi paydo bo‘lgan. Qo‘ni-qo‘shni, mahalla ahlidan mirishkorlik sabog‘ini olib, ish boshlab yuborganman. Bir mavsumning o‘zida 80 million so‘mgacha daromad olamiz. Mahallamizda logistika markazi bor. Mahsulotlarimiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijga eksport qilinmoqda. Avvallari sabzavot mo‘l va bozorbop bo‘lsa ham tumanimiz bozoridan chetga chiqishga qo‘rqar edik. Hozir esa oddiy qishloq dehqoni yetishtirgan mahsulot jahon bozorlariga kirib bormoqda.

## KAFOLATLI BOZOR TA’MINLANSA, MIRISHKOR MEHNATDAN QOCHMAYDI

— Mahallamizda logistika markazi va xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan, — deydi Bahor mahallasidagi hokim yordamchisi Hamid Muhammadiyev. — “Surxon golden trade” MCHJning logistika markazida 10 ming tonnagacha meva-sabzavotni saqlash quvvatiga ega muzlatkich ombor mavjud. Dehqonlar yetishtirgan mahsulot mavsumning o‘zidayoq eksportga yo‘naltirilmasa, maxsus xonalarda sifatli holda saqlanadi. Jamiyatda xizmat ko‘rsatish ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, aholidan mahsulotlar yig‘ib olinib, yurtimiz va jahon bozorlariga olib chiqish uchun tayyorlanadi. Logistika markazida 400 dan ortiq kishi ish bilan ta’minlangan. Mirishkorlarimiz yetishtirayotgan mahsulot uchun aniq va kafolatlangan bozor mavjud. Shuning uchun mahalla ahli mehnatkash. Ular uchun kafolatli bozor ta’minlansa, har qanday “injiq” ekin tuproq bilan til topisha oladi.

Prezidentimizning 2021-yil 15-dekabrdagi “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohada mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, xizmat ko‘rsatish va sotish (eksport qilish) jarayonlarini o‘zaro integratsiya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Hujjatga ko‘ra, joriy yil 1-yanvardan boshlab Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tijorat banklari orqali fermer, dehqon xo‘jaliklari va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarga meva, uzum, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, ko‘katlar va dorivor o‘simliklar, dukkakli va moyli ekinlar yetishtirish uchun kreditlar ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, qarorda meva-sabzavotni qayta ishlovchi, saqlovchi va eksport qiluvchilarga yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilishda talab etiladigan aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun revolver kredit ajratilishi ham belgilab qo‘yilgan. Soha vakillari uchun yaratilayotgan bu kabi imkoniyatlar ularni yerdan yanada samarali foydalanish, salmoqli va sifatli hosil olish orqali ko‘proq daromad topishga undamoqda.

## “EKIN YETISHTIRSAM, ZAVQ OLAMAN”

Mahallaning yana bir mirishkori Panji Iskandarov har mavsumda 100 million so‘mgacha daromad ko‘radi. Yoshi ulug‘ bu otaxon mehnatkashlikda bolalariyu nevaralariga o‘rnak.

— 65 sotix yerga karam, lavlagi va daykonning turli navlarini ekkanmiz. — deydi bobo. — Har mavsumda 20 tonnagacha mahsulot yetishtiramiz. Ekinlarimga qarasam, bor charchog‘imni unutaman. Tomorqangiz yashillikka burkanib, ko‘zni quvontirib tursa yaxshida. Ba’zan bolalarim “bo‘ldi endi, dam oling, ketmon-u belkurak ko‘tarib yurishni bas qiling, biror yeringiz og‘rib qoladi”, deyishadi. Yo‘q, men uyda bekor o‘tirsam, sog‘lig‘imni yo‘qotaman. Ekin yetishtirsam, zavq olaman, hosilga kirgani sayin mehnatga ishtiyoqim yanada ortaveradi. Yerdan samarali foydalanayotgan hech bir mahalladoshimiz kam bo‘layotgani yo‘q: uy qurib, to‘ylar qilyapti, mashina olyapti, farzandlarini o‘qityapti. Xullas, dehqonchilik ortidan orzulari ro‘yobga chiqmoqda.

Butun dunyoda aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash eng dolzarb masala bo‘lib turgan bir paytda tomorqadan unumli foydalanish — munosib yechim. Qolaversa, bizda aholi daromadining 40-50 foizi oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanadi. Qishloq xo‘jaligidagi hosildorlik elimiz dasturxoni to‘kin bo‘lishini ta’minlaydi. Demak, sohada yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, mahsulot yetishtirish mahalladan jahon bozorlari sari yo‘l ochishda katta samara beradi.

Bozorga bir mahsulotni vaqtida, xaridor talabiga mos holda olib chiqish uchun shunchaki mehnatning o‘zi kamlik qiladi. Ekin parvarishi uchun ham izlanish kerak. Mahalla ahli ana shu izlanishdan qochmaydi. Bu borada hudud aholisining bir turdagi mahsulot yetishtirishi qo‘l keladi. Boisi, ular bir-biriga maslahatgo‘y, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi, shu bilan birga, raqobatchi ham bo‘ladi. Mana shu jihatlar ularni doim harakatda bo‘lishga, yilda uch bor hosil olishga undaydi.

DAXLDORLIK

# Ilm vosita emas, MAQSADGA AYLANSIN

## YOXUD HAZRAT NAVOIY BUGUNIMIZ HAQIQATINI BASHORAT QILGANI XUSUSIDA



**Avazjon MARAHIMOV,**
**texnika fanlari doktori,**
**professor**

**Bugun mamlakatimiz ulkan islohotlar, bunyodkorliklar maydoniga aylangan. Yuzlab bog‘cha, maktab, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari binolari, yangi uy-joylar barpo etilmoqda. O‘nlab yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilyapti. Minglab yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda. Shu o‘rinda Moskva davlat universiteti rektori, akademik Viktor Sadovnichiyning mamlakatimizdagi yangilanishlar haqidagi e’tirofi esimga tushdi: “Ko‘pdan beri O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni kuzatib boraman. So‘nggi yillarda yurtingizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar go‘yo “portlash effekti”ni yodga soladi. Xalqning ijodkorlik quvvati arifmetik emas, geometrik progressiya bilan ortayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev xalq hayotini mukammal tushunadi, muammolarni xaspo‘shlamasdan ro‘y-rost ochib tashlaydi. Eng asosiysi, ularning yechimini donolik bilan topa oladi. Mana shu fazilati bilan ham u har qancha tahsinga sazovor. Ayniqsa, oliy ta’lim va ilm-fan sohasini innovatsion g‘oyalar sari burayotgani menga manzur bo‘ldi”.**

Mamlakatimiz qiyofasi mutlaq yangilanyapti. Shunga mutanosib tarzda xalqimizning, ayniqsa, yoshlarimizning dunyoqarashi o‘zgaryapti. Ularda kelajakka umid, ishonch mustahkamlanmoqda. Ilm-fanga, kasbhunar egallashga qiziqish ortdi. Yigit-qizlar shu orqali jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, el-yurtga xizmat qilib, yaxshi yashashi mumkinligini his qildi. Endi bu ishonchni biz — oliy ta’lim muassasalari mas’ullari, professor-o‘qituvchilari oqlashimiz, yoshlarning orzu-umidlari, intilishlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida jonbozlik, shaxsiy namuna ko‘rsatishimiz kerak. Buning uchun bugundan boshqacha fikrlashimiz, boshqacha ishlashimiz, yangilanishni, eng avvalo, o‘zimizdan boshlashimiz zarur. Biroq tan olish kerak, oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan strategik maqsad va vazifalarni hali to‘laqonli anglab yetganimizcha yo‘q.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishga qodir, fundamental bilimlarga ega, tanqidiy va kreativ fikrlaydigan, Vataniga sodiq yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda raqamli iqtisodiyot, “aqlli” texnologiyalar, sun’iy intellekt, robototexnika, yadro energetikasi, “yashil” energetika, nanobiotexnologiyalar, biokimyo va biofizika kabi muhim yo‘nalishlarda ilmiy-innovatsion faoliyatni yo‘lga qo‘yish, yangi ilmiy maktablar yaratish, ilmiy ishlar samaradorligini oshirishdan iborat vazifalarimizni yetarlicha bajara olyapmizmi, degan savollar kun tartibida ustuvor turibdi.

Ochig‘ini aytsak, bu boradagi ishlarimizni talab darajasida, deyish mushkul. Ta’lim sifati, bitiruvchilarimizning bilimi va amaliy ko‘nikmasi ish beruvchilarni ham, o‘zimizni ham qoniqtirayotgani yo‘q. Professor-o‘qituvchilar malakasi, ilmiy ishlarimiz samaradorligi pastligicha qolmoqda. Iste’dodli yoshlarni izlab topish va ular bilan maqsadli ishlashni tizimli asosda yo‘lga qo‘ya olganimiz yo‘q. Faoliyatimizni tanqidiy tahlil qilib, rivojlangan mamlakatlarning oliy ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganish, tajribasini umumlashtirish, soha va hududlarni taraqqiy ettirish dasturlaridan kelib chiqqan holda oldimizda turgan dolzarb vazifalarni belgilab olishimiz va ijrosini ta’minlashimiz zarur.

Barcha sharoit yaratib berilgani, maoshimiz 3-4 barobar oshirilganiga qaramay, ilmga, vazifamizga munosabatimizni o‘zgartira olganimizcha yo‘q. “Men olimman, fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajalarim bor, shuning o‘zi yetadi. Bu yog‘iga ilmda natija bermasam ham davlat katta maosh berishi kerak”, degan boqimandalik kayfiyatida yuribmiz. Bu kayfiyatni, dunyoqarashni o‘zgartirmasak, ilmda ham, ta’limda ham natija bo‘lmaydi.

Ilmni ilmiy daraja va unvon olinadigan vositaga aylantirdik. Alisher Navoiy bobomizning necha asrlar avval yozgan “Ilmni kim vositayi joh etar, O‘zini-yu xalqni gumroh etar”, degan misrasi bugungi holatimizga ham aynan mos keladi. Maqolalar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni ilmni rivojlantirish yoki ta’lim sifatini oshirish uchun emas, balki dotsent, professor bo‘lish uchun yozyapmiz. Chunki bu unvonlarni olsak, maoshimiz yanada oshadi. Boz ustiga, dissertatsiya va ilmiy loyihalar mavzusini soha muammolari va dolzarb masalalardan kelib chiqib emas, balki o‘zimizga qulay va dissertatsiyabop qilib tanlaymiz. Fanlar akademiyasi va ishlab chiqarish bilan hamkorligimiz o‘ta sust.

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Innovatsion tadqiqotlar asosida qo‘shimcha mablag‘ topish, intellektual mulkni tijoriylashtirishga asosiy daromad manbayi sifatida qaralmaydi. “Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor — fakultet — kafedra — ilmiy guruh” tizimi yaxshi ishlamaydi. Uzviylik yo‘q. Ilm bilan shug‘ullanish, ilmiy-innovatsion loyihalarni amalga oshirish ko‘pchilik professor-o‘qituvchilar uchun fakultativ mashg‘ulotga o‘xshab qolgan, ya’ni darsdan, o‘quv-uslubiy ishlardan bo‘sh vaqtdagina shug‘ullaniladi, xolos.

Professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar bilan iqtisodiyotning real sektori, yirik ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatilmagan, ular muammolarni bilmaydi yoki ichiga kira olmayapti. Shuningdek, yirik kompaniyalar, soha mutaxassislari o‘zining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha masalalarni olimlarga ilmiy-texnik tilda taqdim etish malakasiga ega emas. Shu sababli ham ishlab chiqarish bilan olimlar o‘rtasida uzilish yuzaga kelgan. Ochig‘ini aytadigan bo‘lsak, ilmiy salohiyatimizni yuqori, deya olmaymiz, ilmiy ishlarimiz natijadorligi va ishlab chiqarishga tatbiq etilishi nihoyatda past. Mavjud ilmiy salohiyatdan ham samarali foydalanayotganimiz yo‘q. Biz odatda sohalarda yechimini kutayotgan real ilmiy-texnik muammolar qolib, o‘zimiz uchun qulay bo‘lgan va ilmiy guruhlardagina dolzarb deb topilgan masalalarga o‘ralashib qoldik. Agar fundamental tadqiqotlarni jadal olib borish bilan birga, mavjud salohiyatni sohalar rivoji va ishlab chiqarishning real muammolari yechimiga yo‘naltira olsak va uning ustida tizimli ishlasak, ilmiy ishlar samaradorligi ham oshadi.

Dunyoda hal etilmaydigan muammo juda kam. Inchunin, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini jonlashtirish bo‘yicha ham asosli takliflar yo‘q emas. Bu borada oldimizda turgan vazifalarni izchil ro‘yobga chiqara olsak, muayyan darajada maqsadimizga yaqinlashamiz.





**OLIY TA’LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATI NATIJADORLIGIGA QARAB TOIFALASHTIRISH HAM MUHIM MASALALARDAN. XALQARO DARAJADA AHAMIYATGA EGA ILMIY-TEXNIK YANGILIKLAR QILISHGA QODIR PROFESSOR-O‘QITUVCHILARNING O‘QUV YUKLAMASINI KESKIN KAMAYTIRIB, BEVOSITA IQTISODIYOTNING REAL SEKTORI MUAMMOLARI BILAN SHUG‘ULLANISHGA VA USHBU TADQIQOTLAR DOIRASIDA MAGISTR VA FALSAFA DOKTORLARI (PhD) TAYYORLASHGA YO‘NALTIRISH MUMKIN.**

Avvalo, ta’lim sifatini oshirish, ishlab chiqarish bilan integratsiyasini mustahkamlash hamda predmetlararo bog‘liqlikni kuchaytirish orqali talabalarni innovatsion fikrlashga, sohasidagi masalalar yechimini topishga o‘rgatishimiz zarur. Bizningcha, yoshlarning masalaga noan’anaviy yondashuv malakasini shakllantirishga erishish uchun “3+1” modelini qo‘llash maqsadga muvofiq. Ya’ni talaba 4 yillik bakalavriat ta’lim dasturini 3 yilda to‘liq o‘zlashtiradi. Qolgan 1 yilini to‘liq amaliyotga — mustaqil ishlash va bitiruv-malakaviy ishlarini bajarishga yo‘naltiradi.

Taklif etilayotgan model talabaning nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi bilan birga, o‘ziga xos amaliy-kasbiy malakaga ega bo‘lishini ta’minlaydi hamda kafolatli ish o‘rniga ega bo‘lish imkoniyatini bir necha barobar oshiradi. “Universitet — ishlab chiqarish” integratsiyasining qog‘ozda emas, amalda ishlashini ta’minlaydi (bunday tajriba xorijiy davlatlarning nufuzli OTMlarida, jumladan, Moskva davlat universitetida yaxshi natija bermoqda).

Universitetda bakalavriatning ba’zi fan va muhandislik ta’lim yo‘nalishlari uchun qo‘shimcha to‘lov evaziga asosiy ixtisoslik va pedagogikaga oid fanlarni o‘qitish, qo‘shimcha kredit ball olishi hisobiga talabaga tanlagan mutaxassisligi bilan birga qo‘shimcha kvalifikatsiya berish ham mumkin. Bu, o‘z navbatida, rivojlanayotgan yangi sohalar uchun malakali kadrlarni yetkazib berish hamda chekka hududlarda mutaxassisligi bo‘yicha ish topa olmayotgan bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash masalasini hal etishga bir yechim bo‘ladi.

Dunyoning yetakchi “aql” markazlari tahlillariga ko‘ra, 2030-yilga borib, mehnat bozorining 70-75 foizini raqamli texnologiyalardan foydalanish malakasiga ega kadrlar egallaydi. Shundan kelib chiqib, predmetlararo 3 yillik bakalavriat va 2 yillik magistratura dasturini joriy etish taklifini ilgari suryapmiz. Unga ko‘ra, bakalavrlar uchun aniq fanlar bo‘yicha raqamli iqtisodiyot, strategik tahlil va prognozlashtirish, tabiiy fanlar bo‘yicha biotexnologiya, nanotexnologiyalar, sun’iy intellekt va matematik modellashtirish magistrlik dasturlari joriy etiladi. Barcha ta’lim yo‘nalishlarida raqamli texnologiyalarga oid zamonaviy fanlar o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi.

Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini kasbiy faoliyati natijadorligiga qarab toifalashtirish ham muhim masalalardan. Xalqaro darajada ahamiyatga ega ilmiy-texnik yangiliklar qilishga qodir professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamasini keskin kamaytirib, bevosita iqtisodiyotning real sektori muammolari bilan shug‘ullanishga va ushbu tadqiqotlar doirasida magistr va falsafa doktorlari (PhD) tayyorlashga yo‘naltirish mumkin.

Yuksak saviyada ma’ruza qiluvchi va amaliy mashg‘ulotlar bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanayotgan professor-o‘qituvchilarning yuklamasini kamaytirish orqali ularning salohiyatidan xorijiy tajriba asosida boyitilgan darslik, o‘quv qo‘llanma, fan dasturlari tayyorlash, xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, iqtidorli talabalardan xalqaro va respublika tanlovlari g‘oliblarini tarbiyalashda foydalanish maqsadga muvofiq. Zero, bunday yondashuv chet el universitetlarida mavjud va samara bermoqda.

Iqtisodiyotning real sektori, yirik ishlab chiqarish korxonalaridagi ilmiy-texnik muammolar yechimiga qaratilgan muhim yo‘nalishlar bo‘yicha, texnik-iqtisodiy tahlillarni amalga oshiradigan, Fanlar akademiyasi va oliygohlar olimlari oldiga qo‘yiladigan ilmiy-texnik topshiriqlarni shakllantiradigan hamda ularni tijoriylashtiradigan maxsus ilmiy-tadqiqot, konsalting markazlarini tashkil etish mumkin.

Iqtidorli yoshlarni saralash va ular bilan tizimli asosda shug‘ullanish mexanizmini yaratish, chuqurlashtirilgan maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish muhim masala. Hozir Termiz davlat universitetida ushbu dasturga muvofiq, 250 nafarga yaqin talaba yetti ta’lim yo‘nalishida tajriba-sinov tarzida tahsil olmoqda. Ammo bu hali yetarli degani emas va bu boradagi ishlarimizni tizimli rivojlantiramiz. Umumta’lim muassasalariga kirib borishimiz, otaliqqa olishimiz, virtual sirtqi-masofaviy va yakshanbalik maktablarni tashkil etishimiz kerak.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizdagi islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash orqali daxldorlik hissi bilan yashashga o‘rgatish oldimizda turgan alohida vazifalardan. Shundan kelib chiqib, bu yo‘nalishdagi faoliyatimizni ham mutlaqo yangidan ko‘rib chiqishimiz va yoshlar bilan ishlash tizimimizni takomillashtirishimiz shart.



KUN MAVZUSI

# BU YIL TALABALAR KO‘CHADA QOLMAYDIMI?

## MUTASADDILAR BUNGA IZOH BERADI

**Risolat MADIYEVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan davrda yotoq o‘rinlari bilan ta’minlashning o‘ziga xos tizimi yaratildi. Biroq bu masala butunlay yechim topdi, degani emas. Mamlakatimizda oliy ta’limga qaratilgan e’tibor natijasida OTMlar soni ortdi. Talabalar soni ham 1 milliondan ziyod. Bu esa, o‘z navbatida, ularni turar joy bilan ta’minlash masalasining dolzarbligini oshirmoqda.

Prezidentimizning 2023-yil 28-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturida joriy yil yakuniga qadar mamlakatimiz bo‘yicha 18 ming o‘rinli talabalar turar joylarini foydalanishga topshirish vazifasi belgilangan.

— Ayni paytda 38 ming o‘rinli 83 ta talabalar turar joyini barpo etish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida 23 ming 494 o‘rinli 50 ta, OTM va budjet mablag‘i hamda Investitsiya dasturi doirasida 10 ming 660 o‘rinli 21 ta talabalar turar joyi qurilishi uchun tegishli mablag‘ ajratildi, — deydi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari Sarvarxon Buzrukxonov. — Joriy yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, 4 ming 702 o‘rinli 12 ta talabalar turar joyi foydalanishga topshirildi. Ayni paytda 24 ming 394 o‘rinli 51 ta talabalar turar joyi qurilishi jadal sur’atda davom etmoqda. Yangi o‘quv yili boshlangunga qadar yana 6 ming 400 o‘rinli 11 ta talabalar turar joyi foydalanishga topshiriladi.



Shu kunlarda vazirlik mutasaddilarining e’tibori yangi o‘quv yili boshlangan dastlabki kunlardanoq talabalarni yotoqxona va ijara xonadonlarga joylashtirishga qaratilyapti. Hisob-kitoblar vaqtida poytaxtdagi 112 ta davlat oliy ta’lim muassasasida kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 556 mingdan ziyod talabaning yarmidan ko‘prog‘i o‘zining yoki yaqin qarindoshining uyiga joylashgani aniqlangan. Hozir 302 ta talabalar turar joyiga 116 ming 535 talabani joylashtirish ko‘zda tutilmoqda. Turar joylardagi o‘rinlarni alohida imtiyozga ega talabalarga taqsimlash ishlari nihoyasiga yetkazilgan. Bu yil 75 ming 424 talaba avvaldan mavjud bo‘lgan, o‘tgan yillarda istiqomat qilgan va kelgusi o‘quv yili uchun ham band qilib qo‘yilgan ijara xonadonlarga joylashadi. Hozir 77 ming 508 talaba turar joyga muhtoj. Shuning uchun biz asosan shu kontingent bilan ishladik.

Bu yildan e’tiboran OTMlarda talabalarga ijara uylari topishda ko‘maklashadigan tizimning joriy etilgani ham qulaylik bo‘ldi. Sababi, talabaning ijtimoiy holati va boshqa ehtiyoji OTMga yaqqol ayon. 1-avgust holatiga ko‘ra, uy egalari bilan birma-bir suhbatdan keyin 20 ming 978 ta ijara xonadon ro‘yxati tayyor bo‘ldi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur xonadonlarga 77 ming 508 talaba joylashishi mumkin.

Eng katta OTMlar poytaxtimizda joylashgan. Shunga yarasha talabalar turar joyiga ehtiyoj ham salmoqli. Bu hududda 30 ming 707 talaba ijaraga muhtoj. Hozir 9 ming 700 ta bo‘sh ijara xonadon topilib, manzilli ro‘yxati shakllantirildi. Ushbu xonadonlarga 30 ming 707 nafar talabani joylashtirish imkoni mavjud.

Endi vazirlik oldida turgan asosiy masala bo‘sh turgan ijara xonadonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni talabalarga, ota-onalariga yetkazish bo‘lyapti. Shuning uchun har bir OTMning veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar haqida talabalarga ko‘proq ma’lumot yetkazishga harakat qilinyapti. Talabalarga ijara to‘lovining bir qismini qoplab berish ishlari ham davom ettirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining shu yil 14-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari talabalarini turar joy bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohada yana bir qulaylikka yo‘l ochdi. Unga muvofiq, endi davlat OTMlarining talabalar turar joyiga joylashish davlat xizmati markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali elektron ariza berish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Talabalarga navbatni onlayn kuzatish va badal puli to‘lash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, talabalar bilan tuziladigan turar joy ijara shartnomalari davlat soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) texnologiyasi orqali elektron shaklda real vaqt rejimida hisobga qo‘yiladi.

Talabalar mazkur xizmatdan foydalanish uchun yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ariza yuboradi. Arizalar tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimiga kelib tushadi. Talabaning imtiyozi yoki boshqa tegishli ma’lumotlari axborot tizimi yordamida tekshiriladi. Ariza yakunida talabaga yotoqxonaga joylashishi uchun yo‘llanma berilgani yoki navbatga qo‘yilgani haqida ma’lumot taqdim etiladi.

— Raqamlashtirishdan maqsad inson omilini, turli byurokratik to‘siqlar va har xil korrupsion holatlarning oldini olishdir, — deydi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo‘lim boshlig‘i Salohiddin Sanaqulov. — Hozir talabalarning 43 foizini yotoqxona bilan ta’minlash imkoniyati mavjud. Masalaning yana bir muhim jihati, ijara asosida yashaydigan talabalarimizga juda katta imkoniyat berildi. Avvalgi yillarda ijara to‘lovining bir qismini davlat hisobidan qoplab berish tartibi joriy qilingan edi. O‘tgan vaqtda bu borada yuzaga kelgan ayrim muammolarni inobatga olib, endi talabalarimiz Toshkent shahrida ijara shartnomasining summasidan qat’i nazar, to‘lovning qoplanadigan qismi sifatida bazaviy hisoblashning 1 barobari miqdorida, ya’ni 330 ming so‘m oladigan bo‘ldi. Ilgari bu muammo bo‘lgan. Chunki ijara shartnomasida turli summa ko‘rsatilgan. O‘sha summaga qarab to‘lash tartibi muammoni yuzaga keltirgan edi. Yoki xonadon egalarining ijara shartnomalarini imzolash jarayoni cho‘zilib ketgan. Shu va boshqa byurokratik to‘siqlarning oldini olish maqsadida sentyabr-oktyabr oylarida — aynan talabalar turar joylarga joylashadigan muhim pallada ijara to‘lovining bir qismini ijara shartnomasisiz to‘lab beriladigan tartib joriy qilindi. Bu ham juda katta imkoniyat.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra, 1-kurs talabalarini talabalar turar joyiga joylashtirish ushbu qaror bilan tasdiqlangan ma’muriy reglament talablari asosida amalga oshiriladi. 2-kurs va undan yuqori kurs talabalarini joylashtirish an’anaviy tarzda amalga oshiriladi. Bunda joylashish uchun ariza oliy ta’lim muassasasi talabalar turar joylariga joylashtirish komissiyasiga 2023-yil 25-avgustga qadar topshiriladi.



Qarorda imtiyozlilar toifasi ham belgilangan. Misol uchun, talabalar turar joylariga qabul qilish jarayonida “Mehribonlik uylari” tarbiyalanuvchilari, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lganlar, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”, “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari hamda “Yoshlar daftari”dagi yigit-qizlarga ustunlik beriladi. Shuningdek, I va II guruh nogironligi bo‘lganlar, bir oiladan bakalavriat bosqichi kunduzgi ta’lim shaklida ikki yoki undan ortiq kishi bo‘lib to‘lov-shartnoma asosida o‘qiyotganlar, xalqaro va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o‘tkazadigan fan olimpiadalari, “Yil talabasi” va “Talabalar teatr studiyalari” ko‘rik-tanlovlari, “Zakovat” intellektual o‘yinining respublika bosqichi g‘oliblari, talabalar turar joyidagi talabalar kengashi raisi, qavat sardorlari ana shu ustunlikdan foydalanishi mumkin.

ADABIY DO‘STLIK — ABADIY DO‘STLIK



# “QO‘SHIG‘IGA JO‘R BO‘LAMAN Berdaqning”






**Adabiyotda, ijodda shunday an’analar bo‘ladiki, ular hech qachon eskirmaydi, dolzarblik xususiyatini, amaliy ahamiyatini yo‘qotmaydi. Shunday an’analardan biri — turli millat ijodkorlarining do‘stligi, bir-birlarining adabiyoti uchun g‘amxo‘rligi, targ‘iboti, o‘zaro fikr, tajriba almashishlari. Bu an’anani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash barcha qalam sohibi uchun ham mas’uliyatli vazifa.**

Adabiyotlarning bir-biri bilan aloqa o‘rnatishida ijodkorlarning vositachilik roli juda muhim. Hech bir adabiyot boshqa bir adabiyot bilan muayyan shoir yoki yozuvchi shaxsiyatisiz aloqa o‘rnata olmaydi. Zero, ularni bir-birlari bilan bog‘lab turadigan “ko‘prik” bu — konkret shoir yoki yozuvchi, uning asarlari. Bu jahon adabiyoti tajribasida sinalgan haqiqat. Shuning uchun ham bir adabiyotning ikkinchi bir adabiyot bilan aloqasi to‘g‘risida so‘z yuritilganda, eng avvalo, o‘sha adabiyotdagi adabiy do‘stlikka ko‘proq xizmat qilgan yoki xizmat qilib kelayotgan ijodkorning nomi va asarlari tilga olinadi.

O‘z adabiyotidan tashqari boshqa milliy adabiyotlarga ham xizmat qilish ijodkor uchun sharaf. Bunday baxt hamma ijodkorga ham nasib etavermaydi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Rustam Musurmon ijodi bu borada ko‘pchilikka ibrat. Ijodkorni ramziy ma’noda ikki qanotli qushga o‘xshatsak, uning bir qanoti she’riyati bo‘lsa, ikkinchi qanoti badiiy tarjimalari. Ba’zan uning tarjimalari she’rlaridan ham ko‘proqdek tuyuladi. Jahon adabiyoti, xususan, bolgar, venesuela, polyak, fin, venger she’riyatidan qilgan tarjimalari uning baynalmilalchilik va do‘stlik g‘oyalariga sadoqatli, ijodiy taqdirini boshqa adabiyotlar bilan ham bog‘lab qalam tebratib kelayotgan so‘z ustasi ekanini isbotlaydi.

Pablo Neruda, Per Lagerkvist, Aron Tamashi, Alvaro Yunke, Onelio Xorxe Kordosoning hikoya va qissalari, rus adabiyotidan Marina Svetayeva, Bella Ahmadullina, Osip Mandelshtam, Velimir Xlebnikov she’rlari, qoraqalpoq mumtoz shoirlari Ajiniyoz, Berdaqdan tortib, Ibroyim Yusupov, O‘razboy Abdurahmonov, Kengesboy Karimov, Muratboy Nizanov, Sharof Usnatdinov, Baxtiyor Genjemuratov, Sog‘inboy Ibrohimov, Sharapatdin Ayapov kabi adiblarning nasriy va nazmiy asarlari Rustam Musurmon tarjimasida o‘zbekcha ohanglarda jarang sochdi. 2021-yili shoirning “Yilning eng yaxshi tarjimoni” sifatida e’tirof etilgani uning tarjimashunoslik sohasidagi faoliyati munosib taqdirlanganidan dalolat.

Rustam Musurmonning, ayniqsa, qoraqalpoq xalqiga nisbatan qardoshlik mehri va hurmati beqiyos. U Qoraqalpog‘istondagi ko‘plab adabiy-madaniy tadbir yoki shoir va yozuvchilar yubileyida ishtirok etibgina qolmay, ikki qardosh adabiyotning do‘stligi, aloqalari to‘g‘risida ilhom bilan so‘zlaydi. Shoirning ko‘plab qoraqalpoq yozuvchi va shoirlari bilan do‘stligi, ijodiy hamkorligi xalqlarimiz va adabiyotlarimiz do‘stligiga xizmat qilayotgani ham haqiqat. O‘zbekiston xalq shoiri Ibroyim Yusupov ta’biri bilan aytganda, “Bir-birlarimizning asarlarimizni o‘qish, hayotimizni televideniye orqali namoyish qilishning o‘zi yetmaydi, ko‘zlarimizga tushishi, yuzimiz-yuzimizdan bahra olishi, jonli muloqotlar zarur”. Uning qoraqalpoq o‘lkasiga safari, adiblar bilan jonli muloqotlari, bu xalq hayotini yaxshi o‘rgangani yozilajak she’rlari uchun materiallar to‘plashga imkon tug‘dirgan.

Boshqa millatlarga ham ehtirom ko‘rsatib, qadriyatlarini e’zozlaydigan, asarlarida ular hayotining turli ko‘rinishlarini milliy ruhda, baynalmilal g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirib talqin etgan ijodkor borki, u, albatta, muxlislar hurmatini qozonadi. Rustam Musurmon mana shunday e’tirofga sazovor bo‘lgan, o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari turmushidan har xil badiiy shakllarda ikki qardosh xalqning milliy mentalitetini, o‘ziga xosligini nazarda tutgan holda qalam tebratib tanilgan.

Shoirning 2022-yil nashr etilgan “Bir juft so‘z” she’riy to‘plamiga kirgan “Zotim chuyut, men ham



qoraqalpoqman” deb nomlangan turkum she’rlari fikrimizga dalil bo‘la oladi. Bobdagi o‘n uchta she’rning hammasida shoir qoraqalpoq mavzusining turli qirralarini xilma-xil usullarda ochib berishga harakat qilgan. She’rlarning har bir bandi, har bir misrasida shu zamin va millatga xos betakror xususiyatlar jilolanib turadi. Shoir she’rlarida uchraydigan “Xo‘jaylidan nari Qo‘ng‘irot, Ustyurt”, “Bo‘yin ko‘rsam qoraqalpoq o‘g‘lonni, ko‘rgandayman Yedigeni Qoblonni”, “Jayhun jilolagan dursan, gavharsan”, “Shag‘ala, shag‘ala, shag‘illaydi shag‘ala”, “Amu toshqiniday jo‘shar “Dam bermas”, “Qancha chopsang, ko‘zdan qochar kengliklar”, “El bergan Otajon hofiz ustozni”, “Yurak — kema, Orolda qumlarga botib qolgan” kabi misralarni o‘qigan kitobxon o‘zini tasvir obyektiga daxldordek, biror joyda o‘sha voqeaga guvoh bo‘lgandek his qiladi.



U qo‘llagan Qoraqalpog‘istonga xos atamalar, so‘z san’ati, badiiy detallar, betakror tabiat tasviri bilan bog‘liq lavhalar qoraqalpoq hayotining badiiy ko‘zgusidir. Shoir mahalliy sharoitni eslatadigan xarakterli atamalar, xalq qalbiga singib ketgan dostonlar, ulardagi qahramonlar, tarixiy shaxslarni she’rlariga jo qilib, milliy qiyofalari bilan tabiiy va ishonarli tasvirlagan. Misollarda tilga olingan atamalar, ismlar va geografik joy nomlari, milliy an’analar, ijtimoiy-ma’naviy sharoitni yodga soladigan boshqa belgilardan she’rda qaysi millat tarannum etilganini o‘quvchi darrov payqaydi. Muallif poetik ma’noni kuchaytirish uchun mavzuga mos ramzlarni tanlab, she’r g‘oyasini ochishda ulardan foydalangan.

“Zotim chuyut, men ham qoraqalpoqman” turkumiga kirgan har bir she’rning o‘ziga xos ifoda shakli bor. “Aqchako‘l”, “Xalilla”, “Shag‘ala”, “Oqqu”, “Turong‘il va shamol”, “Kema”, “Qushlar uchib keldi To‘rtko‘lga” kabi qasida, bag‘ishlov, qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarini eslatadigan she’rlarda qoraqalpoq ruhi ufurib turadi. “Osmonlarga quchoq ochar kengliklari”ni “Qirg‘ovulga, angga to‘la to‘qayi”ni, “Qirqqizlari ot choptirgan bu diyor”ni alohida mehr bilan milliy bo‘yoqlarda bergan.

“Ustyurt, Qoraqalpog‘iston qo‘rg‘oni” she’rida shoir qoraqalpoq milliy-mahalliy sharoitini, mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan bu o‘lkada hukm suradigan yozning jaziramasi va qishning qahratonini real tasvirlagan.

Bu cho‘lda qush uchsa, qanoti kuyar,
Unda odam yursa, oyog‘i kuyar,
Bahorning ko‘kargan yantog‘i kuyar,
Cho‘lning guli qayda, tikoni qayda?
Yozda cho‘l chang bo‘lar, ayozda toyg‘oq,
Bepoyon Ustyurtda qishlaydi sayg‘oq,
Ona Vatan uyg‘oq, tabiat uyg‘oq,
Yaratganning bunday jayroni qayda?

Bu o‘lkada ko‘p ijodiy safarda yurib, tabiat manzaralarining guvohi bo‘lgan shoir hayot ko‘rinishini obrazli shaklda, xilma-xil ranglarda bera olgan.

Har qanday shoir she’riyatiga jon bag‘ishlaydigan fazilatlardan biri obrazlilikdir. Shoir lirik qahramon xarakterini ochishda tabiatga murojaat qiladi, turli fasllardan obraz tanlaydi, ya’ni tabiatning turli manzaralarini diliga jo qilib, shu orqali falsafiy fikr aytishga muvaffaq bo‘ladi. Shoir she’rlarida uchraydigan “qish”, “yoz”, “bahor”, “yantoq”, “bepoyon cho‘l”, “sahrodagi qum”, “turong‘il”, “shamol”, “baliq”, “chag‘alay”, “o‘rdak”, “oqqu” va hokazolar shunchaki oddiy tabiat ko‘rinishi emas, balki lirik qahramon psixologiyasini ochib berishga qaratilgan badiiy vosita hamdir.

Rustam Musurmonning taniqli qoraqalpoq ijodkori, mashhur notiq Sharap Usnatdinovga bag‘ishlangan “Chechan” nomli she’ri shakli va mazmuni jihatidan taniqli o‘zbek adibi Sulton Akbariyning “Jo‘lmirzaga hazil xat” va “Og‘ayin” she’riga uyqash. Bu she’rda shoir ustoz adiblardan tortib, zamondosh ijodkorlarining qiyofasini real chizib bergan. Har ikkala she’rda ham o‘zbek va qoraqalpoq ijodkorlari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar madh etiladi. Sulton Akbariy “Jo‘lmirzaga hazil xat”da bir-birlariga haddi sig‘adigan qalamkash zamondoshlariga hazil aralash “salom” yo‘llab, ulardan hol-ahvol so‘raydi:

Xo‘jabeging o‘ch emasmi quymoqqa,
Ko‘k Orolning laqqasiga, o‘ynoqqa,
Aldab olib borardimiz Mo‘ynoqqa,
Hanuz yalpoq tovonmi?
Boyniyozing tutib kelsa chavoqni,
Ibroyiming to‘ldir desa tovoqni,
Bobosh qovun desa kadi qovoqni,
Qo‘noqlaring hayronmi?..

Sulton Akbariy misralarda qoraqalpoq she’riyatining nomdor so‘z ustalari — Xo‘jabek Seytov, Boyniyoz Qayipnazarov, Ibroyim Yusupov, Bobosh Ismoilovning nomlarini tilga olgan bo‘lsa, Rustam Musurmon qoraqalpog‘istonlik zamondoshlari Muratboy Nizanov, O‘rozboy Abdurahmonov, Baxtiyor Genjemurod, Yangiboy Qo‘chqorov bilan hamkorlikda “adabiyotga xizmat qilayotgani”dan mamnun.

Yoningizda Muratboy ham O‘razboy,
Qalam tutgan qo‘li uzun, darozboy.
Xorazmda mehmon bo‘lib qaytdingiz,
Qichqirmasdan ovuldagi xo‘rozboy.
Sharq so‘ylaydi bizga quyosh haqinda,
Lola so‘ylar tog‘ ila tosh haqinda.
Baxtiyor madh etdi O‘kuzdaryoni,
She’r o‘qidi Yangiboy Shosh haqinda.

She’r xalqona sodda til va samimiy ruhda jo‘shqin qalb bilan kuylangan. Vazni yengil, qofiyalanish tartibi ham sodda.

“Og‘ayin” she’rining oxirgi bandi so‘nggi misrasida Sulton Akbariy bir so‘z qo‘llaydi. Bu oddiygina so‘z she’rga milliy ruh berib, go‘yo uni yoritib turganday:

Og‘ayin, ko‘p ezma bo‘lib ketibman,
She’r ag‘darib turib salom bitibman,
Sog‘inchimni shundog‘ izhor etibman,
Sog‘ingan tek Sultonmi?!

“Tek” so‘zi o‘zbek tilida “faqat” degan ma’noni anglatadi. Sulton Akbariy “tek” so‘zini ishlatib, she’rga milliy rang bergan. O‘zini qoraqalpoq hayotiga, qalamkash do‘stlari davrasiga juda yaqinlashtirgan.

Rustam Musurmon ham she’rning so‘nggi bandlaridan birida shunday yozadi:

Ko‘paylashib Orolga em izlaysiz,
Ona yerning obodligin ko‘zlaysiz.
Aylanayin, tuvusqanim, bovurim,
Yurtboshimning elga mehrin so‘zlaysiz.

“Tuvusqanim” so‘zining aynan qoraqalpoqcha variantda berilgani tasvirga takrorlanmas kolorit berish bilan birga she’rning poetik ohangini ham kuchaytirgan.

She’rdan shunday ibratli mantiqiy xulosa kelib chiqadi. Bir paytlar adabiyotlar manfaatiga xizmat qilgan o‘zbek va qoraqalpoq ijodkorlari o‘rtasidagi samimiy, do‘stona munosabatlar, o‘zaro bordi-keldi, diydorlashib turishlar, fikrlashib tajriba almashuvlar bugun ham davom etmoqda. Diydorlashuv sabab adabiyotlarimiz do‘stlik mavzusidagi yangi-yangi asarlar bilan boyib bormoqda. Rustam Musurmon Qoraqalpog‘istonning qaysi burchagida bo‘lmasin, o‘zini xuddi o‘z uyidagidek emin-erkin his qilib, bu xalqning mehmondo‘stligini “mezbon saxiy bo‘lsa, mehmon oromda”, deya yuksak baholaydi. “Chechan” mana shunday ijodiy safarlarning, muloqotlarning, tajriba almashuvlarning mevasidir. She’r shu fazilati bilan ham bugungi kunning asari.

Shoir yana bir she’rida qoraqalpoq xalqiga mehrini shunday izhor etadi:

Shunday mehri daryo xalqi bor Haqning,
To‘ylariga borib qoraqalpoqning,
Qo‘shig‘iga jo‘r bo‘laman Berdaqning,
Men Nukusni sog‘inaman ko‘rmasam.

Maqola xotimasida Muxtor Shoxonovning quyidagi misralarini keltirishni joiz topdik:

Do‘st quchishdan bo‘shamasin qo‘llarim,
Shuni juda armon qilar dillarim.
Do‘stligimga ishonganlar kam bo‘lsa,
Unda mening ojizlanib qolganim.

O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga va o‘z so‘ziga ega shoir va tarjimon, publitsist Rustam Musurmon xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini o‘rnatishda hech qachon “ojizlanib qolmasin”, deymiz.

**Gulandom QURAMBOYEVA,**
**filologiya fanlari doktori**

31-AVGUST — QATAG‘ON QURBONLARINI YOD ETISH KUNI

# 3000 DAN ORTIQ QATAG‘ON QURBONLARI RO‘YXATI SHAKLLANTIRILDI

**Azalshoh HAMROYEV,**
**BuxDU tuzilmasidagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori, dotsent**

**Prezidentimizning 2020-yil 8-oktabrdagi “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishiga asosan, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari huzurida uning bo‘limlari faoliyati yanada jonlantirildi.**

Yosh avlodni tariximizda o‘tgan mudhish kunlar bilan yaqindan tanishtirish va mustaqillikning ulug‘ ne’mat ekani haqidagi tushunchalarini boyitish vazifasiga jiddiy kirishildi. Shuningdek, keng jamoatchilik va chet ellik mehmonlar uchun ham mahalliy qatag‘on qurbonlari haqida chuqur ma’lumot berish imkoniyati tug‘ildi.

Ushbu maqsad yo‘lida Buxoro davlat universiteti huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi jamoasi ham tashrif buyuruvchilarga ko‘proq ma’lumot taqdim qilish, eksponatlar safini boyitish ishlariga mas’uliyat bilan yondashmoqda.

Qatag‘onga uchragan 3000 ga yaqin buxorolikning ro‘yxati shakllantirildi va muzey xodimlari tomonidan “Xotira kitobi” tayyorlandi. 2022-2023-yillardagi ilmiy izlanishlar natijasida yangi ro‘yxat shakllantirildi va unga qatag‘on qilingan yana yuzga yaqin kishi haqidagi ma’lumotlar kiritildi.



Buxoro viloyatidan qatag‘on bo‘lganlarni nomma-nom aniqlash maqsadida muzey xodimlari tumanlardagi davlat arxivlarida katta ish olib bordi. Qatag‘on bo‘lganlarning avlodlari muzeyga tashrif buyurib, ota-bobolari haqida ma’lumotlar, fotosuratlar, eksponatlar taqdim etib kelmoqda. Shu bilan birga, muzeyga qatag‘on bo‘lganlarning avlodlari ota-bobolari to‘g‘risida ma’lumot topib berishni so‘rab murojaat qilmoqda.

Muzey fondida 1500 dan ortiq buyum, arxiv hujjati, fotosuratlar, kitoblar, qo‘lyozma asarlar va numizmatika buyumlari saqlanadi. Muzeyga talabalar, o‘quvchilar, mahalliy aholi bilan birga, ko‘plab chet ellik mehmonlar ham tashrif buyuradi. Ular orasida Chexiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstriya, Belarus, Polsha, AQSH, Fransiya, Turkiya, Misr, Afg‘oniston, Hindiston kabi mamlakatlar vakillari bor.

Telekanallar muntazam ravishda muzey bilan hamkorlikda turkum ko‘rsatuvlar suratga olyapti va namoyish qilib bormoqda. Masalan, “O‘zbekiston tarixi” telekanalida namoyish qilinadigan “Millat fidoyilari”, “Tarixiy savol” ko‘rsatuvlarining bir necha soni muzeyimiz faoliyatiga bag‘ishlandi.

Muzey jamoasi xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etib, xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘ygan. Xususan, Sankt-Peterburg va Istanbul shaharlaridagi muzeylar bilan hamkorlikda ish olib borilyapti.

Haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag‘on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat, san’at va adabiyot namoyandalari, oddiy kasb egasi bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, jasorati va matonati misolida yosh avlodni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu boradagi tarixiy ma’lumotlarni xolis va haqqoniy o‘rganish mamlakatimiz mustaqilligi qanday og‘ir va mashaqqatli kurashlar bilan qo‘lga kiritilgani, bugungi erkin, ozod va obod hayotimizni asrab-avaylab, qadrlab yashashimiz kerakligini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DUK

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-846.
43690 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Topshirildi — 02:05